

EVV

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan  
chiqa boshlagan




O'zbekiston Respublikasi  
Favqulodda vaziyatlar  
vazirligi nashri



# Vaziyat

2026-YIL 3-SENTYABR № 36 (1081)



*Vatan oldidagi qasam —*  
**muqaddas burch!**

# VATANGA

Bugun Istiqlolning tug'ilgan kuni,  
Bugun tantanaga Davlat o'zi bosh.

Abdulla ORIPOV

## muhabbatni tortib olib bo'lmaydi

HAR BIR XALQNING TARIXI-DA UNING KELAJAGINI BELGILAB BERADIGAN MUHIM VA UNUTILMAS VOQEALAR BO'LADI. O'ZBEKISTON XALQINING HAYOTIDAGI ANA SHUNDAY BUYUK VOQEALARDAN BIRI, VATANIMIZ MUSTAQILLIGINING E'LON QILINISHIDIR. 1991-YIL 31-AVGUST KUNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI E'LON QILINDI. 1-SENTYABR ESA MUSTAQILLIK KUNI SIFATIDA BELGILANDI. SHU TARIQA XALQIMIZ HAYOTIDA YANGI VA MUHIM TARIXIY DAVR BOSHLANDI.

Mustaqillik – xalqning o'z taqdiri- ni o'zi belgilashi, o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlashi va kelajagini o'z qo'li bilan bunyod etish imkoniyati demak. Bugun biz uchun oddiy tuyuladigan ko'plab qadriyatlarning zahirida ana shu ulug' ne'mat mujassam. Istiqlol tufayli milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ona tilimiz, milliy madaniyatimiz va tarixiy merosimizni asrab-avaylashga katta ahamiyat berildi va

berilmoqda. Ajdodlarimizning boy ilmiy va ma'naviy merosi o'rganilib, ularning nomi va ilmiy faoliyati dunyoga keng tanitilmoqda.

Har qanday davlat kelajagini yoshlar ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki mamlakatning ertangi kuni, avvalo, bilimli, ma'rifatli, vatanparvar va faol yoshlar qo'lida. Shu sabab bizning yurtida ham yoshlar uchun ta'lim olish, kasb-hunar egallash, ilm-fan va sport bilan shug'ullanish, o'z iste'dodini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani, yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida qaralayotgani ahamiyatli.

Mustaqillik bizga nafaqat huquq va imkoniyat, balki katta mas'uliyat ham

yukladi. Vatan ravnaqi har bir insonning o'z ishiga halol va mas'uliyat bilan yondashishidan boshlanadi. Kimdir ta'lim berish orqali, kimdir ilmiy izlanishlari bilan, yana kimdir o'z kasbini sidqidildan bajarish orqali yurt taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish muhim. Zero, Vatanni sevish madaniyatli insonning birinchi belgisidir, degan ekan dunyoga mashhur sarkardalardan biri.

Yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari, ta'lim va ilm-fan rivoji, zamonaviy shahar va qishloqlarning obodligi, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar mamlakatimiz kelajagiga bo'lgan

ishonchni yanada mustahkamlashi shubhasiz. Mustaqillik bayrami bizga shonli tariximizni yodga olish, bugungi tinch va farovon kunlarning qadriga yetish hamda kelajak haqida o'ylash imkonini beradigan muhim kun. Shoir aytganidek, Vatanga bo'lgan muhabbat tengsiz:

*Shu tuproqdan topdim baxtimni,  
Farzandimni sevgancha sevgum.  
Yurtga bo'lgan muhabbatimni  
Mendan tortib ololmas hech kim!*

**Yulduzxon BAXRONOVA,**  
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabasi

*Mustaqillik tengdoshi bugun navqiron yoshlikdan bir qadar ulg'aygan, el koriga yaraydigan inson bo'lib shakllangan, butun shaxsga aylangan insondir. Bir niholning allaqachon daraxt bo'lib o'sgan davridir bu. Bugun har bir sohada ana shunday kamolga yetgan mustaqillik tengdoshlarini uchratish mumkin. Xususan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida ham istiqloq tengdoshlari talaygina. Yurtimizda eng ulug', eng aziz bayram shukhi kezib yurar ekan, qutqaruvchilik kasbini egallagan ana shunday istiqloq tengdoshlarining fikrlariga quloq tutdik.*



**Doniyorbek MASIROV,**  
**Farg'ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi 2-qutqaruv qismi yo'riqchi-qutqaruvchisi, kichik serjant:**

– 2013-yildan buyon harbiy xizmatdaman. Har bir insonning bolalikdan qalbida asrab kelgan bir orzusi bo'ladi. Mening bolalikdagi orzum esa – harbiy libos kiyish, Vatanga xizmat qilish va el-yurtga naf keltirish edi. Yoshligimdan harbiylarning tartib-intizomi, jasorati va Vatan himoyasidagi xizmatiga qiziqib ulg'aygan Doniyorbek vaqt o'tishi bilan o'z oldiga aniq maqsad qo'ydi. Qutqaruvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishim ham aynan shu orzu bilan uyg'unlashdi. Zero, qutqaruvchi ham og'ir va murakkab vaziyatlarda insonlar hayotini asrash, ularga yordam qo'lini cho'zishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi.

2013-yilda bolalikdagi shu orzuyim ro'yobga chiqdi. Harbiy libosni kiyib, o'z hayotimni xalq xavfsizligini ta'minlashdek sharaflilik xizmatga bag'ishladim. O'tgan yillar davomida qutqaruvchilik kasbining mashaqqatlari bilan birga, insonparvarlik va fidoyilikka asoslangan yuksak mohiyatini ham chuqur anglab bordim. Bugun men uchun har bir navbatchilik – yangi sinov, har bir chaqiriq esa inson hayotini asrash yo'lidagi mas'uliyatli vazifadir. Qutqaruvchi sifatida men favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, maxsus texnika va jihozlardan mohirona foydalanish, eng muhimi, insonlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishga doimo tayyor turaman.

**1991-yilda,** O'zbekiston mustaqillikka erishgan yilda dunyoga keldim. Bugun mustaqillik tengdoshi sifatida ozod va obod Vatanimning tinchligi hamda xalqimning xavfsizligi yo'lida xizmat qilmoqdaman. Bolalikdagi oddiy bir orzu – harbiy libos kiyish istagi bugun mening hayot tarzimga aylangan. Bu libos ortida esa mas'uliyat, sharaf, fidoyilik va el-yurt oldidagi yuksak burch mujassam. Bir paytlar harbiy libosni orzu qilgan bola bugun shu libosda insonlar hayotini asrash yo'lida xizmat qilmoqda.

## “MEN MUSTAQILLIK TENGDOSHIMAN!”

**Feruz ERGASHEV,**  
**Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Kadrlar bilan ta'minlash bo'limi boshlig'i, kapitan:**

– Men uchun bu juda katta sharaf va mas'uliyat. Men O'zbekiston mustaqillikka erishgan 1991-yilda dunyoga kelganman. Shu bois o'z hayotimni yurtimizning mustaqillik yillari bilan chambarchas bog'liq deb bilaman. Mustaqillik tengdoshi bo'lish – shunchaki yosh jihatidan bir davrga mansublik emas, balki Vatan taraqqiyoti, uning tinchligi va farovonligiga daxldorlik hissidir.

Biz mustaqillik tufayli o'z kelajagimizni o'zimiz belgilash imkoniyatiga ega bo'ldik. Men uchun Vatanga xizmat qilish – sharaflilik burch. Favqulodda vaziyatlar tizimida faoliyat yuritish katta mas'uliyatni talab qiladi. Chunki bu sohada inson hayoti va xavfsizligi bilan bog'liq vazifalar bajariladi. Har bir xodim o'z vazifasiga vijdonan yondashishi, intizomli va fidoyi bo'lishi kerak. Men ham o'z xizmat faoliyatim orqali yurtimiz tinchligi va xalqimiz xavfsizligiga munosib hissa qo'shishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Mustaqillik bayrami men uchun, avvalo, tinchlik va osoyishtalik, erkin va farovon hayot, kelajakka ishonch ramzidir. Bu sana har birimizga Vatanimizning bu-



gungi taraqqiyoti o'z-o'zidan kelmaganini, uning zahirida xalqimizning mehnati, intilishi va bunyodkorligi mujassam ekanini yana bir bor eslatadi.

Men Mustaqillik tengdoshi sifatida bundan doim faxrlanaman. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetib, Vatanimiz ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishni o'zimning eng muhim burchlarimdan biri deb bilaman.

Qutqaruv jarayonlarini kuzata turib, har safar yurtimiz tinch, hayotimiz farovon bo'lsin, hech kimning uyi yonmasin deymen. Zero, ogohlik va hushyorlik nafaqat o'z uyimiz, tevarak-atrofimiz xavfsizligi, balki jamiyat farovonligiga ham xizmat qiladi.



## TOZA HAVO: TADBIR EMAS, NATIJA MUHIM

*INSON OVQATSIZ BIR NECHA HAFTA, SUVSIZ BIR NECHA KUN YASHASHI MUMKIN. AMMO HAVOSIZ SANOQLI DAQIQALARGINA YASHAY OLADI. SHUNGA QARAMAY, BIZ NAFAS OLAYOTGAN HAVONING QADRI KO'PINCHA U IFLOS-LANGANDAGINA SEZILADI. SHAHAR USTIDAGI XIRA OSMON, QISH OYLARIDA OG'IRLASHGAN HAVO YOKI CHANG-TO'ZON PAYTIDA NAFAS OLISHNING QIYINLASHISHI TOZA HAVO HAM DOIMIIY MUHOFAZA VA OQILONA BOSHQARUVNI TALAB QILADIGAN HAYOTIY RESURS EKANINI ESLATADI.*

BMT Bosh Assambleyasi 2019-yilda 7-sentyabrni Moviy osmon uchun toza havo xalqaro kuni deb belgilagan va u 2020-yildan buyon nishonlab kelinadi. 2026-yilgi xalqaro kampaniyada iqlim va toza havo bo'yicha choralarni uyg'unlashtirishning aholi salomatligi va iqtisodiyot uchun samarasiga alohida urg'u berilmoqda. Zero, yoqilg'i yoqish, transport va sanoat kabi ayrim manbalar bir vaqtning o'zida ham havoni ifloslantiradi, ham iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun ham bu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, poytaxt va yirik sanoat shaharlarida havo sifatiga transport, isitish tizimlari, sanoat, qurilish, tabiiy chang va meteorologik sharoit bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi.

Jahon bankining 2024-yil oktyabrda e'lon qilingan Toshkent havosi sifatini kompleks baholashiga ko'ra, poytaxtda PM2.5 mayda zarrachalarining yillik o'rtacha konsentratsiyasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiya etgan yillik ko'rsatkichdan olti baravardan ziyod bo'lgan. PM2.5 bilan ifloslanishning aholi salomatligiga ta'siri bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar esa O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 0,7 foiziga teng deb baholangan.

Ayni paytda, so'nggi rasmiy ma'lumotlar muayyan ijobiy o'zgarishlarni ham ko'rsatmoqda. 2026-yil yanvar-fevral oylarida Toshkentda PM2.5 konsentratsiyasi 2025-yilning shu davriga nisbatan sezilarli kamaygani qayd etilgan. Biroq Toshkent, Navoiy, Farg'ona, Chirchiq va Termizda havo ifloslanishi belgilangan ko'rsatkichlardan yuqori bo'lgan holatlar hanuz kuzatilmoqda. Demak, ijobiy dinamika choralarni susaytirish uchun emas, ularni yanada maqsadli davom ettirish uchun asos bo'lishi kerak.

PM2.5 – diametri 2,5 mikrometrdan kichik bo'lgan juda mayda zarrachalar. Ular nafas yo'llarining tabiiy himoya

to'siqlaridan o'tib, o'pkaning chuqur qismlariga, hatto qon aylanishi tizimiga kirishi mumkin. Shu bois havo sifati faqat ekologik masala emas, balki aholi salomatligi va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omildir.

Muammoning muhim jihati – havo ifloslanishini faqat avtomobillar sonining ko'payishi bilan izohlab bo'lmastir. 2024-yilgi Jahon banki baholashiga ko'ra, Toshkentda inson faoliyati bilan bog'liq PM2.5 ifloslanishida isitish tizimlari ulushi 28 foizni, transport 16 foizni, sanoat 13 foizni tashkil etgan. Yoz oylarida esa shamol ko'taradigan tabiiy va transchegaraviy changning ta'siri kuchayadi. Demak, yagona universal yechim yo'q: qishda isitish manbalari, yil davomida transport va sanoat, qurilish mavsumida chang, quruq davrlarda esa tabiiy va transchegaraviy chang oqimlariga mos choralar talab etiladi.

Muammo faqat poytaxtga xos emas. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Finlandiya meteorologiya instituti tomonidan tayyorlanib, 2025-yil dekabrda e'lon qilingan Termiz havosi sifati bo'yicha kompleks tadqiqot chang va qum bo'ronlari havodagi PM10 va PM2.5 zarrachalari miqdorining eng keskin oshishiga sabab bo'layotganini ko'rsatdi.

Termizda kuzatilgan eng yuqori ifloslanish holatlaridan biri Orolbo'yidan qariyb 900 kilometr masofani bosib o'tgan chang oqimi bilan bog'liq bo'lgan. Bu havo ifloslanishi davlat chegaralari bilan cheklanmaydigan muammo ekanini ko'rsatib, mintaqada ma'lumot almashish, birgalikda prognozlash va erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Iqlim o'zgarishi bu xavfni yanada kuchaytirishi mumkin. Yerlarning qurishi va degradatsiyasi, yuqori harorat hamda ekstremal ob-havo hodisalari chang-to'zonlar ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, toza energiya, energiya samaradorligi va kam chiqindili transportni rivojlantirish orqali

ham havo ifloslanishini, ham iqlimga ta'sirni kamaytirish mumkin.

O'zbekistonda bu yo'nalishda yangi yondashuvlar shakllanmoqda. 2026-yil 23-martda taqdim etilgan umum-milliy "Toza havo" loyihasida hududlarda ifloslanish manbalarini aniqlash, yagona monitoring tizimini rivojlantirish, sanoat korxonalarida avtomatik nazorat uskunalarini o'rnatish, filtrlash va energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish ko'zda tutilgan. Transportda ekologik talablarni kuchaytirish va jamoat transportini rivojlantirish, qurilishda esa chang tarqalishini cheklash choralariga e'tibor qaratilgan.

Bu muhim qadamlar. Biroq keyingi bosqichda ekologik siyosatni baholashda asosiy e'tibor amalga oshirilgan tadbirlar sonidan ularning aniq natijasiga o'tishi kerak. Qancha daraxt ekilgani, nechta filtr o'rnatilgani yoki qancha ekologik avtobus xarid qilingani muhim, ammo yakuniy mezon - PM2.5 konsentratsiyasi qancha kamaygani, me'yordan yuqori ifloslanish kunlari qisqargani va aholining zararli havo ta'siriga duchor bo'lish darajasi pasayganidir.

Shu nuqtai nazardan, Toshkent va boshqa yirik shaharlarda havo sifati bo'yicha yagona ochiq monitoring va erta ogohlantirish tizimini to'liq shakllantirish maqsadga muvofiq. PM2.5, PM10 va boshqa asosiy ifloslantiruvchilar to'g'risidagi ma'lumot aholiga real vaqt rejimida sodda va tushunarli shaklda yetkazilishi, havo keskin ifloslangan kunlarda esa maktablar, tibbiyot muassasalari va xavf guruhlariga tezkor tavsiyalar berilishi lozim.

Shuningdek, har bir yirik shahar uchun ifloslanish manbalari va mavsumiy xususiyatlarga asoslangan alohida toza havo rejasi ishlab chiqish samarali bo'lar edi. Toshkentda qishki isitish, transport va qurilish; sanoat shaharlarida korxona chiqindilari; chang-to'zon xavfi yuqori hududlarda esa tabiiy omillarga mos choralar ustuvor bo'lishi kerak.

Transport siyosatida asosiy maqsad faqat ekologik toza avtobuslar xarid qilish emas, balki jamoat transportini shaxsiy avtomobildan qulayroq, tezroq va

ishonchliroq qilish bo'lishi lozim. Avtobuslar uchun ustuvor yo'llarlar, qulay almashish bekatlari, xavfsiz piyoda va velosiped infratuzilmasi tirbandlik, yoqilg'i sarfi va zararli chiqindilarni bir vaqtning o'zida kamaytirishga xizmat qiladi.

Qishki ifloslanishni pasaytirish uchun binolarning energiya samaradorligini oshirish, eski isitish uskunalarini bosqichma-bosqich yangilash, tozaroq yoqilg'i va zamonaviy filtrlash texnologiyalarini joriy etish muhim. Sanoat korxonalarida avtomatik chiqindi nazoratini kengaytirish va natijalarning ochiqligini ta'minlash ham ekologik mas'uliyatni oshiradi.

Changga qarshi kurashda qurilish maydonlarida changni bostirish, yuklarni yopiq holda tashish, ochiq tuproq maydonlarini barqarorlashtirish hamda shaharlar atrofida ilmiy asoslangan yashil himoya hududlarini rivojlantirish zarur. Ko'kalamzorlashtirishni esa faqat ekilgan ko'chatlar soni bilan emas, ularning yashovchanligi va havo sifatiga real ta'siri bilan baholash to'g'ri bo'ladi.

Shu tariqa ekologik dasturlar samaradorligini "qancha tadbir o'tkazildi?" degan hisobot ko'rsatkichidan "havo sifati qanchalik yaxshilandi?" degan natijaviy mezonga o'tkazish zarur. Bu yondashuv Barqaror rivojlanish maqsadlarining salomatlik, toza energiya, barqaror shaharlar va iqlim o'zgarishiga qarshi choralar bo'yicha vazifalarini ham o'zaro bog'laydi. Toza havoga yo'naltirilgan mablag' faqat ekologik xarajat emas – u kasalliklarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va shaharlarni inson uchun qulayroq qilishga qaratilgan investisiyadir.

Pirovardida, shahar ekologik siyosatining haqiqiy samarasi hisobotlardagi raqamlar yoki amalga oshirilgan tadbirlar soni bilan emas, inson har kuni nafas olayotgan havoning sifati bilan o'lchanishi kerak. Moviy osmon – shunchaki chiroyli manzara emas, balki sog'lom hayot va barqaror kelajakning muhim belgisidir.

**Jahongir ISAYEV,**  
"Barqaror rivojlanish markazi"  
NNT bo'lim boshlig'i

2024-YILNINNG 19-IYUL KUNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "SIYOSIY QATAG'ON QURBONI BO'LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O'RGANISH, TARG'IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO'G'IRISIDA"GI QARORI E'OLON QILINDI. USHBU HUJJATDA 1937-1953-YILLARDA MUSTABID TUZUM TOMONIDAN 100 MINGDAN ZIYOD XALQIMIZ VAKILLARI QATAG'ON SIYOSATINING QURBONI BO'LGANI, YURTDOSHLARIMIZNING 13 MING NAFARI OTIB TASHLANGANI, MINGLAB KISHILAR NOHAQ QULOQ QILINGANI, SURGUNLARGA JO'NATILGANI, ULAR ORASIDA ATOQLI DAVLAT VA SIYOSAT ARBOBLARI, ILM-FAN NAMOYANDALARI, IJODKOR ZIYOLILAR, DINIY ULAMOLAR, HARBIY SOHA VA SUD-HUQUQ TIZIMI XODIMLARI, ISHCHI-DEHQONLAR VA ULARNING OILA A'ZOLARI BO'LGANLIGI QAYD ETILGAN.



# SIYOSIY QATAG'ON QURBONLARI UNUTILMAYDI!

Ushbu sanani yodga olgan holda maqolamizni boshlar ekanmiz, Davlatimiz rahbarining "Katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, o'qituvchilar qatag'on qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi. Mustabid tuzumga millat ko'zini ochadigan, unga o'zligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi – buyuk bo'lgani" degan e'tirofini ta'kidlab o'tgimiz keldi.

Yunusobod tumanidagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui bag'rida joylashgan "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga yo'l olar ekanmiz. Bo'zsuv kanali to'liqlari bizga nimalarnidir so'zlamochi bo'lib to'lg'onib oqayotgandek tuyuldi. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyining aynan Toshkent shahridagi Bo'zsuv sohilida barpo etilgani bejiz emas edi. Ayni shu qarovsiz joyda zulm va zo'rvonlikka asoslangan shafqatsiz sho'rolar tuzumi davrida xalqimizning qanchalab asl farzandlari otilgan, bekafan, bejanoza ko'mib yuborilgan. Manzil bugun qatag'on qurbonlarini xotirlaydigan muqaddas qadamjoga, ozod Vatanda tug'ilib, kamolga yetayotgan yoshlarning ziyoratgohiga aylandi.

– Bu qutlug' va tabarruk maskanga keladigan har bir yurtldoshimiz qalbi va ongida vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat hissini uyg'otish, ayniqsa, yoshlarimizni bugungi dorilomon kunlar qadriga yetishga, qatag'on qurbonlari xotirasiga yuksak hurmat va ehtirom ila munosabatda bo'lishga undash ekspozitsiyalarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi, – deydi muzey bosh ilmiy xodimi Bahrom Irzayev. – Mustabid tuzum yillarida qatag'onga uchragan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning ibratli hayoti va faoliyati, ilmiy ijodiy merosini chuqur o'rganish yoshlarimiz qalbida ajdodlarimiz ruhiga ehtirom, ijtimoiy adolat tantanasiga ishonch, istiqloq g'oyalariga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik

tuyg'ularini uyg'otadi, albatta.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda milliy qadriyatlarimizni tiklash, tarixni xolis va haqqoniy o'rganish, aziz siymolar xotirasini e'zozlash, xalqimizning boy ma'naviy merosini tadqiq etish, targ'ib va tashviq qilish, qatag'on qurbonlarining ayanchli qismati, ularga va oilalariga nisbatan qilingan shafqatsiz zo'rvonlik holatlariga adolatli baho berish, tarixiy adolatni qaror toptirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

– Hozirgi kunda muzey fondida 17 mingga yaqin eksponat mavjud. Fond da saqlanayotgan hujjatlardan ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar hamda qatag'onga uchragan o'z yaqinlari to'g'risida ma'lumot so'rab murojaat qilgan fuqarolarga tegishli javob qaytarish maqsadida unumli foydalanib kelinmoqda, – deydi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov. – O'zining 20 yillik faoliyati davomida muzey qatag'on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish, yoshlarda istiqloq g'oyalariga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini kuchaytirish borasida salmoqli ishlarni olib bormoqda.

Tarixiy manbaalarga tayanadigan bo'lsak, 1937-53-yillarda O'zbekistonda 100 ming odam qatag'onga uchragan, ularning 13 ming nafari otib tashlangan. O'tgan asrning 80 yillarida ham yurtldoshlarimiz adolatsizlik qurboniga aylanib, "paxta ishi", "o'zbek ishi" degan soxta ayblovlar bilan respublika bo'yicha 40 ming kishi tergov qilingan, 5 ming nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

– O'sha yillar qatag'oni avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi, – deydi Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi rahbari, professor, tarix fanlari doktori Rustambek Shamsutdinov. – Faqat 1937-yil-

ning dekabr oyida "uchlik" qarori bilan hukm qilingan uch ming olti yuz qirq to'rt kishidan bir ming to'rt yuz oltimish to'rt nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938 yilning fevralida "uchlik" yig'ilishlarida 2 ming 491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan. Ular asosan o'ziga to'q dehqonlar, ishchi-xizmatchilar, ulamolar, savdogarlar edi.

2023-yilning 11-12- dekabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya juda qizg'in muhokamalarga boy bo'ldi. Yirik amaliy anjumanda o'zbekistonlik olimlardan tashqari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlar ishtirok etdi. Konferensiya da ma'ruzaga chiqqan olimlar orasida Buxoro davlat universiteti professori Sulaymon Inoyatovning hayajonli nutqi diqqatimizni tortdi:

– Janoblar va xonimlar, bugun meni xursand qiladigan bir jihat shundaki, men uch buyuk siymo – Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja va Atoulllo Xo'ja-larga taalluqli bo'lgan oilada dunyoga kelganman. Va uzoq yillar "xalq dushmanining dumi" degan tamg'ani olib yurgan insonlardan biriman. Bugungi xalqaro anjumandan foydalanib, men bevosita prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga alohida minnatdorlik bildirmoqchiman. Axir bugun mingminglab jadid bobolarimiz ruhlari shod bo'lmoqda. Menga alam qiladigan bitta joyi bor, u ham bo'lsa, har safar Toshkenga kelganimda gul ko'tarib bobolarimning qabrini ziyorat qilish istagida yuraman. Lekin bobomning qabri qayerda ekan u qachon vafot etgan qayerda otilgan hozirgacha aniqlaganim yo'q.

Va nihoyat Sulaymon Inoyatov

Fayzulla Xo'jayev otilgan joyni borib ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Moskvada joylashgan Kommunarka qabristonida Rossiya prezidenti taklifi bilan olti ming olti yuz kishining ism-familiyasi maxsus taxtalarga yozib qo'yilganligi haqida xabar topgan qahramonimiz o'sha joyga qushdek uchib boradi. Qatag'on qilingan insonlarning ro'yxatida Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromovlar borligini ko'rgach, boshi ko'kka yetadi. Ayniqsa, qatag'on qurbonlari hayoti haqida muzey tashkil qilinayotgani ni eshitib tashkilotchilarga rahmat aytadi.

2024-yilning 30-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilingach, vaqt juda kech bo'lganiga qaramay, Buxoroga sim qoqdik. Xushxabarni eshitgan Sulaymon Inoyatov beixtiyor yig'lab yubordi va shunday dedi:

– Bilasizmi, qizim, bu xabar meni yetti osmon qadar ruhlantirdi. Men shunday kunlar kelishini bilardim. Jadid bobolarimiz haqidagi ma'lumotlarni bir necha yillardan beri jamlab kitob nashr qilish istagim bor edi. Ayniqsa, bobom Atoulllo Xo'ja jadid bobolarimiz g'oyalarini amalga oshirishdagi xizmatlari juda katta bo'lgan.

Ha, oradan necha yillar o'tgan bo'lishiga qaramay jadid bobolarimiz haqidagi ne-ne hujjatlar hali arxivlarda o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Bugun yurtimizda tinchlik va farovonlik barobarida, inson xotirasi va qadrlarining yuksak darajada ulug'lanayotgani yosh avlod uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir. Bularning barchasi Yangi O'zbekistonda keyingi yillarida tom ma'noda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini ulug'lanadigan buyuk davlatga aylanganini namoyon qilmoqda.

**Muxtasar TOJIMAMATOVA,**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

# ORAMIZDAGI

*BUGUN ZAMON SHIDDAT BILAN O'ZGARMOQDA. YOSHLARNING KASB TANLASHGA, MEHNAT FAOLIYATIGA BO'LGAN QARASHLARI HAM KECHAGIDAN FARQ QILADI. BIR TASHKILOTDA IKKI-UCH YIL, UZOG'I BILAN BESH YIL ISHLAB, YANGI ISH JOYI IZLASH ODATIY HOLGA AYLANIB BORMOQDA. BIR SOHADA ILDIZ OTIB, UNING HAR BIR POG'ONASINI BOSIB O'TIB, YILLAR DAVOMIDA SHU KASBGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILISH ESA TOBORA KAM UCHRAYDIGAN FAZILATGA AYLANMOQDA.*



Ammo shunday insonlar borki, ular uchun kasb shunchaki mehnat daftarchasidagi yozuv yoki daromad manbai emas. Bu, umr mazmuni, mas'uliyat va qadriyatdir. Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, podpolkovnik Mirzohid Ostonov ana shunday insonlardan. U qariyb 30 yildan buyon bir tizimda xizmat qilib, kasbga sadoqat nimaligini amaliy faoliyati bilan isbotlab kelmoqda.

Biz esa qiziqib so'radik:

– Siz xizmat uchun hayotingizning qariyb 28 yilini bag'ishladingiz. Xo'sh, bu kasb sizga nima berdi? Savolimizga qahramonimiz uzoq o'ylanmadi. Uning samimiyligi va kamtarligini namoyon etgan javob esa atigi ikki so'zdan iborat bo'ldi:

– Baxt topdim...

Darhaqiqat, inson ko'ngli o'zini baxtli qiladigan muhitga talpinadi. Umrning eng sermahsul, faol yillari ish joyida o'tishini hisobga olsak, aynan shu maskanda o'z baxtini topish har kimga ham nasib etavermaydigan ne'matdir. Bunday baxt esa tasodifan topilmaydi. Qahramonimizning aytishicha, buning uchun, avvalo, inson o'zi tanlagan kasbini sevishi kerak. Uni faqat yutuqlari, e'tiroflari yoki martabasi uchungina emas, balki boricha qabul qilib, mashaqqatlarini ham, mas'uliyatini ham o'ziniki bilib sevishi kerak. Hech qanday manfaat kutmasdan, faqat vijdon amri bilan xizmat qila olgan insongina kasbidan baxt topadi.

Mirzohid Ostonovning ham kasbiga bo'lgan muhabbatini birgina sabab yoki bir nechta jumla bilan izohlash mushkul. Chunki bu tuyg'u lavozimlar ortidan emas, yillar davomida sinovlardan o'tgan sadoqat, fidoyilik va odamlar taqdiri uchun javobgarlik hissi bilan shakllangan. Qahramonimiz suhbatlashganda nechog'lik samimiy, kamtar va yuzidan tabassum arimaydigan inson bo'lsa, xizmat masalasiga kelganda shunchalik qattiqqo'l, intizomni hamma narsadan ustun qo'yadigan, har bir topshiriqni mukammal bajarishni talab qiladigan rahbardir.

Ostonov Mirzohid Yoriyevich 1973-yilda Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanida tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1998-yilda yong'in xavfsizligi tizimida oddiy mutaxassis sifatida boshlaydi. Dastlab viloyat IIB YSB 1-son harbiylashtirilgan yong'inidan saqlash birikmasi 4-son harbiylashtirilgan yong'inidan saqlash qismida yong'inning oldini olish guruhini inspektori bo'lib xizmat qilib, sohaning eng murakkab va mas'uliyatli jihatlarini amaliyotda o'rganadi. Keyingi yillarda yong'inni o'chirish guruhi inspektori, muhandis, katta inspektor kabi lavozimlarda ishlab, har bir bosqichda tajriba va salohiyatini boyitdi. Ayniqsa, 2001-2017-yillar davomida Shahrisabz shahridagi uzoq yillik faoliyati davomida nafaqat malakali mutaxassis, balki jamoani boshqara oladigan rahbar sifatida ham shakllandi. Shundan so'ng, viloyat IIB Yong'in xavfsizligi boshqarmasi boshlig'ining yong'in nazorati va profilaktikasi bo'yicha o'rinbosari, 2020-yildan Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'ining favqulodda vaziyatlar profilaktikasi yo'nalishidagi o'rinbosari sifatida faoliyat yuritdi. 2023-yildan boshlab esa boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – shtab boshlig'i, 2025-yildan buyon favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha birinchi o'rinbosar sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, insonning tajribasi faqat xizmat qilgan yillari bilan o'lchanmaydi. Asl tajriba – yillar davomida o'rganishdan to'xtamaslikda namoyon bo'ladi. Mirzohid Ostonovning rahbar sifatidagi eng muhim fazilatlaridan biri ham shunda. U hech qachon: "Men rahbarman, bu sohada ko'p yildan beri ishlayman, hammasini bilaman" degan qarash bilan yashamaydi. Aksincha, har qanday murakkab vaziyatda, avvalo, jamoasini tinglaydi, mutaxassislarning fikrini eshitadi, takliflarni tahlil qiladi, har bir xodimning salohiyatidan o'rinni foydalanishga intiladi. Kimdadir chuqur tahliliy tafakkur bo'lsa, uning g'oyasiga tayanadi. Kimdir amaliyotda chaqqon va tajribali bo'lsa, o'sha kuchni to'g'ri yo'naltira oladi. Vaziyat talab qilsa, hodisa jarayonida qutqaruvchilar bilan



# QAHRAMONLAR

bir safda turadi, yosh xodimlarga yelkadosh bo'ladi, murakkab vaziyatni ichidan turib boshqaradi. Bu esa uning o'zi bilan yelka-yelka mehnat qilayotgan har bir xodim taqdiriga befarq emasligini yaqqol namoyon etadi.

– Bu sohada o'z ustida ishlashdan hech qachon to'xtamaslik kerak. O'zidan oldin xizmat qilganlardan, amaliy tajribasi boy insonlardan so'rab, ko'rib, o'rganishdan tortinmaslik lozim. Men bu borada ko'p narsani hozirda Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i, polkovnik Farhod Mirzayevdan o'rganganimni alohida ta'kidlayman. Biz 2001-yildan buyon birgalikda faoliyat yuritib kelamiz. Shu yillar davomida yong'in xavfsizligini ta'minlashda faqat jismoniy tayyorgarlik yoki texnik ustunlikning o'zi yetarli emasligini angladim. Hujjatlar bilan ishlash madaniyati, har bir ishni puxta rejalashtirish, kelgusidagi vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, odamlar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish, eng muhimi, har bir xodimning salohiyatini to'g'ri yo'naltirish borasida ko'p saboq oldim. Nafaqat men, balki jamoamizning har bir a'zosi professional xodim bo'lishga intiladi. Ana shunday bir-biridan o'rganishni qadrlaydigan jamoa bilan ishlash yotganimdan faxrlanaman.

Darhaqiqat, M.Ostonov boshqarayotgan jamoaning professional bo'lishi zamon talabi emas, zaruratdir. Chunki Qashqadaryo viloyati geografik joylashuvi, sanoat salohiyati va strategik ahamiyatga ega obyektlari bilan respublikadagi eng mas'ul hududlardan biri sanaladi. Bu yerda yirik ishlab chiqarish korxonalari, neft-gaz majmualari, kimyoviy va boshqa toifalangan obyektlar joylashgan bo'lib, favqulodda vaziyatlarning deyarli barcha turlarini yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

Qahramonimizning zimmasidagi mas'uliyat ham shunga monand. U muntazam ravishda turli tashkilotlarda maxsus va taktik o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi. Har bir obyektning o'ziga xos xususiyatini, bino va inshootlarning tuzilishini, xavf omillarini chuqur o'rganadi. Yong'in yoki boshqa favqulodda vaziyat sodir bo'lgan taqdirda harakatlanish rejalarini ishlab chiqadi, qutqaruv bo'linmalarining tezkorligi sinovdan o'tkazib, hamkor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtiriladi. Muhimi, minglab insonlarning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Bu ishlarning ortida esa ko'pchilik ko'rmaydigan mashaqqatli mehnat yotadi. Rejalar, hisob-kitoblarni, obyektlarni o'rganish, takror va takror o'tkaziladigan mashg'ulotlar... Kechni kecha, kunduzni kunduz demay ishlash Mirzohid Ostonov uchun odatiy hol. Chunki u ish vaqtining tugashi bilan emas,

zimmasidagi vazifalar to'liq ado etilganidagina o'zini xotirjam his qiladi.

Qutqaruvchilar mehnatini so'z bilan to'liq tasvirlab bo'lmaydi. Qancha chiroyli ta'riflar topmaylik, favqulodda vaziyatlar ortida qoladigan mashaqqat, mas'uliyat va fidoyilikni qog'ozga sig'dirish mushkul. Xuddi shuningdek, qahramonimizning kasbiga sadoqati, yillar davomida qilgan xizmatlari va erishgan muvaffaqiyatlarini ham bir maqola doirasida to'liq ifodalash qiyin. Uning fidokorona mehnati davlat tomonidan munosib e'tirof etilib, joriy yilda Prezidentimiz Farmoniga muvofiq Mirzohid Ostonov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bu mukofot uning ko'ksiga taqilgan navbatdagi nishon emas, balki qariyb o'ttiz yillik halol xizmat, minglab o'quv-mashg'ulotlar, yuzlab murakkab vaziyatlar va insonlar xavfsizligi yo'lida sarflangan umrning munosib bahosi bo'ldi.

Qahramonimiz garchi asosiy e'tiborini ishga qaratgan inson bo'lsada, u shaxsiy hayot muvozanatini saqlashni ham yaxshi biladi. O'z ustida ishlashni hech qachon to'xtatmaydi – muntazam gazeta mutolaa qiladi, mamlakat va dunyo yangiliklarini kuzatadi, aqlni charxlash uchun krossvord yechishni, tanni chiniqtirish uchun piyoda yurishni yaxshi ko'radi.

Eng muhimi, u xizmatdagi kabi oilada ham o'z o'rni ega inson. Mehribon turmush o'rtog'i, ikki o'g'il va bir qizning g'amxo'r otasi, qarindosh-urug' va mahalla-ko'y orasida hurmat qozongan inson sifatida e'tirof etiladi. Bunday muvaffaqiyati ortida esa qahramonimizning o'ziga xos, chuqur mazmunga ega hayotiy falsafasi yotadi: "Xizmatda, eng avvalo, insoniylikni yo'qotmaslik kerak! Chunki texnika yangilanadi, bilim boyiydi, tajriba ortadi. Ammo insoniylik boy berilsa, qolgan fazilatlarining qiymati ham kamayadi" deydi qahramonimiz.

E'tiborlisi, M.Ostonov hech ikkilanmay umrining oxirigacha aynan shu sohada xizmat qilishni tanlaganini aytadi. Bu esa shunchaki kasb tanlovi emas, o'z yo'lga bo'lgan qat'iy ishonch va fidoyilikning ifodasidir. Bunday insonlarga qarab, kasbni sevisish zavqini, halol mehnat bilan baxt topish qadrini yana bir bor teran aglaysan kishi.

Suhbat so'nggida yana bir haqiqatga amin bo'ldikki: Favqulodda vaziyatlar tizimining kuchi faqat zamonaviy texnika yoki puxta tayyorgarlikda emas. Uning eng katta boyligi – Mirzohid Ostonov kabi mehnatkash, kamtar va o'z kasbini chin dildan sevadigan insonlarning borligida Ana shunday xodimlar bor ekan, tizim xalq uchun yanada yaqin va ishonchli bo'lib qolaveradi.

**Sabohat UZOQOVA,**  
jurnalist

Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida xizmat qilayotgan yosh harbiy xizmatchilar o'rtasida kibersport bo'yicha viloyat birinchiligi o'tkazildi.

## Yosh xodimlar kibersportda bellashdi

Musobaqadan ko'zlangan asosiy maqsad xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, yosh harbiy xizmatchilarning tezkor fikrlash qobiliyati, jamoaviy hamkorligi, texnik mahorati va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bellashuvlarda ishtirok etgan jamoalar o'zaro kuch sinashar ekan, vaziyatni tezkor baholash, qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish, sheriklari bilan hamjihatlikda harakat qilish va texnik imkoniyatlardan unumli foydalanish borasidagi mahoratlarini namoyish etdilar. Ayniqsa, yosh harbiy xizmatchilarning zamonaviy kompyuter texnologiyalarini puxta egallagani, raqamli muhitda erkin ishlashi va yangi texnologik yo'nalishlarga qiziqishi e'tiborga molik. Bu esa bugungi yosh avlodning zamon bilan hamnafas, yangilikka intiluvchan va texnologik jihatdan yetuk ekanini ko'rsatadi.

Kibersportning yana bir muhim jihati shundaki, bunday musobaqalar yosh xodimlarning nafaqat sportga bo'lgan qiziqishini oshirdi, balki ular orasidagi iqtidorli, tezkor fikrlaydigan, texnik salohiyati yuqori va jamoani ortidan ergashtira oladigan yoshlarni aniqlash imkonini ham beradi.

Favqulodda vaziyatlar tizimida esa bunday ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega. Chunki qutqaruvchining faoliyatida tezkor vaziyatni tahlil qilish, to'g'ri qaror qabul qilish, jamoa bilan hamkorlikda harakat qilish va zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanish muhim omillardan sanaladi.



Shu ma'noda, kibersport bo'yicha tashkil etilayotgan bellashuvlarni oddiy musobaqa sifatida emas, balki yosh xodimlarning zamonaviy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi o'ziga xos maydon sifatida baholash mumkin. Tadbir so'nggida eng ilg'or xodimlar aniqlanib, boshqarma rahbariyati tomonidan pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Mazkur haftada, shuningdek, Qarshi tumanining Favqulodda vaziyatlar bo'limida shaxsiy tarkibning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida kutubxona tashkil etildi.

Kutubxona dastlab 300 ta kitob bilan o'z faoliyatini boshladi. E'tiborlisi, mavjud adabiyotlardan qutqaruv qismida xizmat qilayotgan 50 nafarga yaqin qutqaruvchi bilan birga ularning oila a'zolari ham erkin foydalanishlari mumkin.

Kelgusida kutubxona fondini yanada boyitish rejalashtirilgan. Xususan, kitoblar sonini 1000 tadan oshirish, fondni o'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari, detektiv asarlar, ilmiy-ommabop adabiyotlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini

olish va ularni bartaraf etish sohasiga oid maxsus kitoblar bilan to'ldirish ko'zda tutilmoqda. Bu esa xodimlarga o'z kasbiy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, turli yo'nalishlarda mutolaa qilish imkonini beradi.

Tashabbusning yana bir muhim jihati — kutubxona eshiklarini keng jamoatchilik, xususan, yoshlar uchun ham ochish rejalashtirilganidir. Kelgusida qutqaruv qismi atrofidagi mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlarning ham ushbu ma'rifat maskanidan foydalanishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Xususan, haftaning "Payshanba – Yoshlar kuni" doirasida mahalla yoshlarining kutubxonaga tashrifi yo'lga qo'yilib, ularning kitob mutolaasi bilan shugullanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Bu orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kitobxonlikka keng jalb qilish va mutolaa madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shish maqsad qilingan.

**Sohibjon VAYITOV,**

Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati rahbari, mayor

Samarqand shahri yana bir bor yoshlarning shijoati, intilishi va iste'dodini namoyon etgan yirik tadbirga mezbonlik qildi. Mahalla yoshlari o'rtasida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" uchun tashkil etilgan "Jasorat va matonat" sport musobaqalarining respublika bosqichi ko'tarinki ruhda o'tkazildi.



Musobaqaning respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda o'tkazilgan saralash bosqichlarida g'olib bo'lgan jami 14 ta jamoa ishtirok etdi. Turli hududlardan Samarqandga tashrif buyurgan yoshlar ikki kun davomida o'zaro bellashib, nafaqat sportdagi mahorati, balki bilim, topqirlik, tezkorlik va amaliy ko'nikmalarini ham namoyish etdilar.

"Jasorat va matonat" musobaqasining o'ziga xos jihati shundaki, unda ishtirokchilardan faqatgina yuqori jismoniy tayyorgarlik emas, balki murakkab vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish, jamoa bilan hamjihatlikda harakat qilish, bilim va amaliy ko'nikmalarni bir vaqtda namoyon etish talab qilindi.

Xususan, "Jasorat estafetasi" sharti ishtirokchilar uchun haqiqiy mahorat sinoviga aylandi. Unda yoshlar tezkorlik, chaqqonlik, epchillik, aniqlik va jamoaviy hamjihatlik borasidagi imkoniyatlarini ishga soldilar. Har bir soniya va har bir harakat muhim bo'lgan bahslarda jamoalar g'alaba uchun bor kuchlarini safarbar etdilar.

Ishtirokchilar dor yo'lidan o'tish, chodir tiklash va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi amaliy topshiriqlarni bajardilar. Bu shartlar orqali yoshlar favqulodda vaziyatlarda inson hayotini asrash, tezkor harakat qilish va muayyan vaziyatdan to'g'ri chiqib ketish bo'yicha ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdilar.

Shuningdek, jamoalar voleybol va arqon tortish bahslarida ham kuch sinashdilar. Ayniqsa, arqon tortish bellashuvlarida jamoaviy birdamlik va o'zaro ishonch muhim ahamiyat kasb etdi. Voleybol bahslarida esa sportchilarning chaqqonligi, texnik mahorati va jamoa manfaatini shaxsiy natijadan ustun qo'ya bilishi namoyon bo'ldi.

## Jasorat va matonat egalari taqdirlandi

Musobaqa dasturidan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan shartlar ham munosib o'rin oldi.

"Zakovat" intellektual o'yinining, savol-javob va shaxmat bahslarida ishtirokchilar o'z bilimlari, mantiqiy fikrlashi, xotirasi va tezkor tafakkurini namoyish etdilar.

Ijodiy taqdimot shartida esa jamoalar o'zlarining ijodiy salohiyati, o'ziga xos yondashuvi va jamoaviy mahoratini ko'rsatdilar. Bu shartlar yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, o'z fikrini erkin ifodalashi va jamoa oldida o'zini namoyon eta olishiga xizmat qildi.

Mazkur musobaqani tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, sportga keng jalb etish, ularning jismoniy tayyorgarligi va irodasini mustahkamlash bilan bir qatorda, yosh avlodda qutqaruvchi kasbiga qiziqish uyg'otishdan iborat.

Zero, qutqaruvchi kasbi jasorat, fidoyilik, kuchli iroda va yuksak mas'uliyatni talab etadi. Favqulodda vaziyat yuz bergan paytda inson hayoti va xavfsizligi ko'p jihatdan qutqaruvchining tezkorligi, bilim va amaliy tayyorgarligiga bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, "Jasorat va matonat" musobaqasida yoshlarning qutqaruvchilikka oid amaliy shartlarda qatnashishi ularni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ushbu sharaflilik kasbiga bo'lgan qiziqishini ham oshirishga xizmat qildi.

Musobaqa davomida yoshlar o'zaro tajriba almashib, turli hududlardan kelgan tengdoshlari bilan yangi do'stlik rishtalarini o'rnatdilar. Eng muhimi, ular har bir shartni jamoa bo'lib bajarish orqali birdamlik, o'zaro yordam va mas'uliyat kabi muhim fazilatlarini amalda namoyon etdilar.

Ikki kun davom etgan qizg'in va murosasiz bahslar yakunida eng yaxshi natijalarni qayd etgan jamoalar aniqlandi.

*Yakuniy natijalarga ko'ra, Buxoro viloyati jamoasi birinchi o'rinni egallab, "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sohibiga aylandi. Andijon viloyati jamoasi ikkinchi, Toshkent shahri jamoasi esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.*

Buxoro viloyati jamoasi a'zosi Rahmatova Madinabonu musobaqa haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashar ekan, mazkur bellashuvlarda ishtirok etish ular uchun katta tajriba maktabi bo'lganini ta'kidladi. Uning fikricha, ikki kunlik bahslar davomida jamoa a'zolari o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish bilan birga, turli hududlardan kelgan tengdoshlaridan ham ko'plab yangi bilim va tajribalarni o'rgandilar.

Musobaqadadan so'ng barcha ishtirokchilar uchun Samarqandning tarixiy obidalariga sayohat tashkil etilgani esa yoshlar uchun musobaqaning yana bir unutilmas lahzasiga aylandi. Qadimiy va betakror Samarqand bo'ylab sayohat davomida yoshlar shaharning boy tarixi, buyuk ajdodlarimizdan qolgan bebaho me'moriy merosi va tarixiy obidalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Bu sayohat ularning musobaqa haqidagi xotiralarini yanada boyitib, Samarqand haqidagi taassurotlarini yangi mazmun bilan to'ldirdi.

Musobaqaning yakuniy tadbirida so'zga chiqqanlar barcha ishtirokchilarni erishgan natijalari bilan tabrikkladi. Yoshlarning musobaqa davomida ko'rsatgan jasorati, shijoati va faolligini e'tirof etib, ularning kelgusidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.

G'olib va sovrindorlar "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi", diplom, medal hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Ilhom BOQIYEV,**

Samarqand viloyati FVB Axborot xizmati boshlig'i, kapitan



# Sport va burch bir yo'lda

**Olov... U ko'pchilik uchun xavf, vahima va halokat timsoli. Ammo hayotda shunday insonlar borki, ular boshqalar qochadigan tomonga qarab yuguradi. Ular uchun olovdan qo'rqish emas, uning qarshisida matonat bilan turish, eng og'ir damda inson hayotini asrab qolish – kasbiy burch. Qutqaruvchilik ana shunday jasorat, fidoyilik, jismoniy chiniqish va ruhiy tayyorgarlikni talab qiladigan sharaflı kasblardan biridir.**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qilayotgan, ayni paytda sport maydonlarida ham munosib natijalarga erishib kelayotgan Rahmonali Abdullayevning hayot yo'li bunga yaqqol misol bo'la oladi. Uning bolalikdagi orzusi bugun el xizmatiga aylangan. Sport esa bu yo'lda unga kuch, iroda va qat'iyat bag'ishlayotgan muhim omillardan biridir.

Rahmonali Abdullayev 1996-yil 6-avgustda Farg'ona viloyatining so'lim Oltiariq tumanida tug'ilgan. Uning bolalik yillari musaffo tabiat, mehnatkash insonlar va samimiy oilaviy muhit bag'rida o'tdi. U tengdoshlari orasida chaqqonligi, harakatchanligi va intiluvchanligi bilan ajralib turardi. Biroq uning kelajakdagi kasbini belgilab bergan voqea oddiy bolalik xotiralaridan butunlay boshqacha edi.

Bir kuni qo'shni xonadonda yong'in chiqadi. Voqea joyiga yetib kelgan qutqaruvchilar alangaga qarshi dadil kurashadi. Ularning sarosimaga tushmay, vaziyatni tez baholab, odamlar xavfsizligini ta'minlashga intilayotgani yosh Rahmonalining qalbida chuqur taassurot qoldiradi. O'sha paytda u qutqaruvchilik kasbining naqadar mas'uliyatli va sharaflı ekanini to'liq anglab yetmagan bo'lishi mumkin. Ammo qutqaruvchilarning jasorati uning xotirasida uzoq saqlanadi.

“Shu voqeadan keyin o'zimga qat'iy maqsad qo'ydim: qutqaruvchi bo'laman, odamlarga yordam beraman” deydi Rahmonali.

Ba'zan inson taqdirini katta voqealar emas, bolalikda ko'ngliga chuqur o'rnatib qolgan birgina manzara belgilab beradi. Rahmonali uchun ham o'sha yong'in shunday burilish nuqtasi bo'ldi. U o'z oldiga maqsad qo'ydi va vaqt o'tishi bilan bu maqsad ortidan izchil bordi.

2012-2015-yillarda Oltiariq tumandagi Maishiy xizmat kasb-hunar kollejida tahsil olgan Rahmonali 2016-yildan boshlab yong'in-qutqaruv sporti bilan jiddiy va muntazam shug'ullana boshladi. Bu oddiy sport mashg'uloti emas. Unda jismoniy kuch, tezlik, chaqqonlik, muvozanatni saqlash, balandlikda ishlash va eng muhimi, qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.



Qutqaruvchi uchun har bir soniya hisobli. Favqulodda vaziyat paytida bir necha soniyalik kechikish ham inson hayoti uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Shuning uchun bunday kasb egasi faqat kuchli bo'lishi yetarli emas. U ruhiy jihatdan ham bardoshli, vazmin, tezkor va mas'uliyatli bo'lishi kerak. Rahmonali sport orqali ana shu fazilatlarni o'zida shakllantirib bordi.

Uning qutqaruvchilik faoliyati 2019-yildan boshlandi. Dastlab Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida qorovul sifatida mehnat faoliyatini boshlagan Rahmonali o'zining tirishqoqligi va intilishi bilan bu tizimda yanada mas'uliyatli vazifalarni bajarishga tayyor ekanini ko'rsatdi. 2021-yilda tanlov imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, rasman FVV safiga qabul qilindi va Quvasoy shahriga askar-qutqaruvchi lavozimiga tayinlandi.

2025-yilda esa o'zi tug'ilib o'sgan Oltiariq tumanidagi 26-davlat yong'in-qutqaruv qismiga o'tkazildi. Bugungi kunda ham Rahmonali shu yerda xizmat qilmoqda. Uning uchun bu nafaqat tug'ilib o'sgan hududiga qaytish, balki bolalikdagi orzusining o'z yurtida davom etishi hamdir.

Haqiqiy qutqaruvchining mahorati mashg'ulot maydonida shakllanadi, ammo uning haqiqiy qiymati favqulodda vaziyat paytida namoyon bo'ladi. Rahmonali xizmat faoliyati davomida ko'plab murakkab va xavfli yong'inlarni bartaraf etish, insonlarning hayoti va mol-mulkini saqlab qolish bilan bog'liq amaliyotlarda bevosita ishtirok etdi.

Trevoga signali yangragan zahoti qutqaruvchi uchun vaqt to'xtamaydi.

Texnika tayyorlanadi, manzil aniqlanadi va guruh voqea joyiga shoshadi. U yerda esa tutun, alanga, yuqori harorat, vahimaga tushgan odamlar va oldindan ma'lum bo'lmagan xavflar qarshi chiqishi mumkin. Shunday vaziyatda qutqaruvchi o'z qo'rquvini emas, vazifasini o'ylaydi. Tutun bosgan binoga kirib, fuqarolarni xavfsiz joyga olib chiqish uchun jismoniy kuch bilan bir qatorda katta ruhiy tayyorgarlik ham talab etiladi.

Rahmonalining hayotida sport va xizmat bir-birini to'ldirib kelmoqda. U sportdagi ishtiyoqini yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yilda Farg'ona davlat universitetining Jismoniy madaniyat yo'nalishiga o'qishga kirdi. Bu qaror uning hayotida yana bir muhim bosqichni boshlab berdi. Endi u bir tomondan xizmat vazifalarini bajarsa, ikkinchi tomondan bilim va sport mahoratini oshirish ustida ishladi.

Natijalar esa ko'p kuttirmadi. 2023-yilda O'zbekiston ochiq chempionatida FVV jamoasi tarkibida jangovar yo'nalish turida 3-o'rinni egalladi. Respublika ochiq chempionatlarida ham bir necha bor ishtirok etib, eng yuqori natija sifatida 3-o'rinni qayd etdi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar musobaqasining Farg'ona viloyati bosqichida 100 metrga yugurishda 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Uning yana bir muhim yutug'i “Besh tashabbus” olimpiadasining viloyat bosqichida 27-30 yosh toifasida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanma olgani bo'ldi. Bu natijalar ortida birgina musobaqa kuni emas, balki uzoq davom

etgan mashg'ulotlar, intizom, mehnat va o'z ustida ishlash jarayoni turibdi.

Rahmonalining fikricha, FVV xodimi hayotida sportning o'rni beqiyos. Zero, qutqaruvchining asosiy vazifasi inson hayotini saqlab qolishdir. Buning uchun esa u kuchli, chaqqon va jismonan chiniqqan bo'lishi zarur.

– Bizning asosiy vazifamiz – insonlar hayotini saqlab qolish, ularning shirin jonini asrash. Agar xodimning jismoniy tayyorgarligi yetarli bo'lmasa, kuchli va abjir bo'lmasa, favqulodda vaziyatda u kimni qutqara oladi? Mening nazdimda, qutqaruvchi uchun sport har doim birinchi o'rinda turishi kerak, – deydi u.

Bu fikrda katta hayotiy haqiqat bor. Sport insonni faqat jismonan chiniqtirib qolmaydi. U iroda, sabr, intizom, mag'lubiyatdan keyin yana harakat qilish va g'alabadan keyin ham to'xtab qolmaslikni o'rgatadi. Qutqaruvchi uchun esa ana shu fazilatlarning barchasi nihoyatda zarur.

Rahmonali erishgan yutuqlari bilan cheklanib qolmoqchi emas. Uning oldida aniq maqsadlar turibdi. U ofitser unvoniga erishishni, FVV tizimida sport bo'yicha professional murabbiy bo'lib yetishishni va kelajakda yosh qutqaruvchi-sportchilarni tarbiyalashni istaydi.

Aslida insonning qadrini faqat egallagan lavozimi yoki qo'lga kiritgan medallari belgilamaydi. Uning jamiyatga qanday naf keltirayotgani, og'ir vaziyatda boshqalarga qanday tayanch bo'la olayotgani muhim. Rahmonali Abdullayevning hayot yo'li esa burch va orzu bir yo'lda uyg'unlashishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bolalikda ko'rilgan birgina yong'in manzarasidan boshlangan orzu uni qutqaruvchilik kasbiga yetakladi. Sport esa bu yo'lda uning eng muhim tayanchlaridan biriga aylandi. Bugun u nafaqat o'z hayoti, balki boshqalarning hayoti uchun ham mas'uliyatni zimmasiga olgan inson sifatida xizmat qilmoqda.

Yoshlar uchun bunday hayot yo'li katta saboqdir: chin maqsad qo'yilgan joyda mehnat, sabr va qat'iyat bo'lsa, bolalikdagi orzu bir kun kelib hayot mazmuniga aylanishi mumkin. Eng muhimi, inson o'z kuchini faqat o'zi uchun emas, el-yurt manfaatiga sarflay bilishi kerak.

Rahmonali Abdullayevning bosib o'tgan yo'li – jasorat, mehnat va sadoqat yo'li. Uning kelgusidagi maqsadlari ham bugungi xizmatidek ezgu. Unga sharaflı xizmatida, sport maydonlarida va oldinda turgan yangi marralar sari intilishlarida omad tilaymiz.

**Guli IKROM qizi,**  
jurnalist

# KURSANTLAR VATANGA

## QASAMYOD QILDI

Har yili kuz fasli yangi o'quv yili hayajoni bilan boshlanishi an'anaga aylangan. Harbiy ta'lim dargohlarida bu kun yigit kishining hayotida bir marta bo'ladigan "Vatanga qasamyod" marosimi bilan farq qiladi. Ana shunday hayajonga to'la tadbir bu yil ham o'zgacha shukuhda, bayramona ruhda o'tkazildi.

Ta'kidlash joiz, FVV Akademiyasiga bu yilgi kirish imtihonlari shaffoflik va oshkoralik tamoyillariga asoslanib, yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur muassasaga qiziqishi va ishtiyoqi baland yoshlarimiz imtihonlarni muvaffiqiyatli topshirib yuqori ball to'plagan abituriyentlarimiz kursantlik baxtiga muayassar bo'ldilar va bugun FVV

Akademiyasining birinchi bosqich kursantlarining "Vatanga qasamyod" qabul qilish tantanali tadbiri o'tkazildi.

Tadbirni Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor Azizbek Ikramov ochib, akademiyaning birinchi bosqichiga qabul qilingan kursantlarni "Vatanga qasamyod" qabul qilganliklari munosabati bilan tabriklab, mazkur tantanali tadbir "1-sentyabr – jonajon Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami"ga ulanib ketayotganligi kursantlar uchun faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otish bilan bir qatorda, ulkan mas'uliyat va tanlagan kasbiga umrbod sodiqlikni ham talab etishini hamda bugungi tadbir shubhasiz, ularning hayotida unutilmas voqea bo'lib muhrlanib qolishini alohida ta'kidladi.

Shundan so'ng tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan Yangi O'zbekistonda Davlatimiz rahbari tashabbuslari



bilan barcha sohalar qatorida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida ham tubdan islohotlar amalga oshirilayotgani, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, qutqaruv tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va eng muhimi, vatanparvar kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilgani alohida ta'kidlandi.

Tadbir yakunida taniqli san'atkorlarning ona-Vatanni madh etuvchi kuy – qo'shiqlari va chiqishlari bayram shukuhiga yanada zavq ulashib, barcha ishtirokchilar va taklif etilgan mehmonlarda iliq taassurotlar qoldirdi.

**Farhodjon XOJAYEV,**

FVV Akademiyasi axborot va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i, mayor

# Bilim va ko'nikmalar yanada

## MUSTAHKAMLANMOQDA

Bugungi kunda davlat organlari faoliyatida favqulodda vaziyatlarining oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, bunday holatlarda tezkor harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi inspektorlarining FVV Akademiyasida malaka oshirishi alohida ahamiyatga ega.

FVV Akademiyasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda hayot faoliyati xavfsizligi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ixtisoslashgan ta'lim muassasasi hisoblanadi. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarga favqulodda vaziyatlarning turlari, ularning kelib chiqish sabablari, xavf darajasini baholash, aholini muhofaza qilish hamda favqulodda holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan zarur choralar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

O'quv mashg'ulotlarining amaliy



yo'nalishga ega ekani esa tinglovchilarning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Akademiyaning malaka oshirish tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar va kasbiy bilimlarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

### Inspektorlar faoliyatida xavfsizlik masalalarining o'rni

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi inspektorlarining xizmat faoliyatida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday holatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha bilimiga ega bo'lish muhimdir.

Malaka oshirish davomida yong'in xavfsizligi, fuqaro muhofazasi, evakuatsiya

tadbirlarini tashkil etish, birinchi navbatdagi xavfsizlik choralarini ko'rish hamda favqulodda vaziyatlarda o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilishi mumkin.

Bunday mashg'ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki real vaziyatga yaqin sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

### Hamkorlik – samaradorlik garovi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi o'rtasidagi bunday hamkorlik favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha bilim va tajriba almashish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Xususan, malaka oshirish jarayonida soha mutaxassislari bilan muloqot qilish, mavjud muammolar yuzasidan fikr almashish va amaliy tajribalarni o'rta-

nish tinglovchilarning kasbiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FVV Akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi ham tizim xodimlarining bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda professional salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan.

### Xulosa

Bugungi tezkor va murakkab sharoitda har bir davlat xizmatchisining favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishi muhim talab hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi inspektorlarining FVV Akademiyasida malaka oshirishi ularning favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfsizlik choralarini to'g'ri tashkil etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarga tayyor turish borasidagi bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Eng muhimi, bunday o'quv mashg'ulotlari inson hayoti va sog'lig'ini asrash, xavfsizlikni ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan yagona maqsad yo'lida hamkorlikni yanada kuchaytiradi.

Shu jihatdan, malaka oshirish jarayoni nafaqat kasbiy bilimlarni yangilash, balki mas'uliyat, tezkorlik, hushyorlik va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi muhim fazilatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Izzatilla RAHMATILLAYEV,**

Toshkent shahar FVB Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi binosida Favqulodda vaziyatlar bo'linmasi inspektori, katta leytenant



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini munosib kutib olishga qaratilgan keng ko'lamli obodonlashtirish, tozalash va aholi uchun xavfsiz hamda farovon muhit yaratish ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan Jizzax viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida ham bayram tadbirlarini xavfsiz va favqulodda vaziyatlarsiz o'tkazishni ta'minlash maqsadida barcha shahar va tumanlarda kuchaytirilgan tartibda profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda.

Xususan, Forish tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash, yong'inlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida bozorlar, savdo obyektlari va aholi yashash xonadonlarida keng qamrovli profilaktik ishlar olib borilmoqda.

# SHONLI 35 YILLIK TANTANA

Profilaktik tadbirlar davomida bozorlarda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi o'rganilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlar, bozor ma'muriyati va mas'ul shaxslar bilan yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalarini doimiy shay holatda saqlash hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Aholi yashash xonadonlarida esa gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish, nosoz elektr tarmoqlari va gaz uskunalardan foydalanmaslik, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik hamda yong'in va boshqa noxush hodisalarning oldini olishga qaratilgan tavsiyalar berilmoqda.

Shu bilan birga, yoz mavsumida cho'kish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida suv havza-

larida ham nazorat-profilaktika tadbirlari kuchaytirilib, dam oluvchilarga xavfsizlik qoidalarini tushuntirilmoqda. Noqonuniy cho'milish joylarida ogohlantiruv ishlari olib borilib, fuqarolarni faqat belgilangan va xavfsiz hududlarda cho'milishga chaqirish bo'yicha targ'ibot ishlari davom ettirilmoqda.

Bunday profilaktik tadbirlar mustaqilligimizning 35 yillik bayram tantanalarini xavfsiz, osoyishta va ko'tarinki ruhda o'tkazish, shuningdek, aholi hayoti va mol-mulkini ishonchli muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

**Iftixor UMAROV,**

Jizzax viloyati FVB Axborot xizmati boshlig'i, kapitan

**Ma'ruf QURBONOV,**

Forish tumani FVB boshlig'i o'rinbosari, mayor

## POYDEVORIMIZ MUSTAHKAM BO'LSIN

Bugun Andijon viloyatining har bir go'shasida ulkan bunyodkorlik nafasi ufurmoqda. Shovullab ko'kka bo'y cho'zayotgan zamonaviy turar-joylar, ko'rkam jamoat binolari va ijtimoiy soha maskanlari vodiyni ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Xususan, viloyat bo'ylab 525 ta yangi qurilayotgan hamda rekonstruksiya qilinayotgan obyektlar shaharsozlikning yangi qiyofasini belgilamoqda. Biroq har qanday go'zallik va muhtashamlik ortida bitta eng muhim poydevor bor: u ham bo'lsa — inson hayoti va xavfsizligi.

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari mana shu bunyodkorlik maydonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olish yo'lida kun-u tun hushyorlik bilan xizmat qilmoqda. Joriy yilning dastlabki olti oyi davomida soha mutaxassislari tomonidan ushbu yo'nalishda keng qamrovli profilaktika ishlari olib borildi.

O'tgan davr mobaynida viloyatdagi qurilish obyektlarining 258 tasida batafsil tekshiruvlar o'tkazildi. Maqsad — jazo qo'llash emas, balki xavfni vaqtida aniqlab, bartaraf etishdir. Tekshiruvlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ul shaxslarga 8 208 banddan iborat yozma ko'rsatmalar taqdim qilinib ularning qariyb 6156 tasi(75%) bartaraf etildi. Insonlar hayotiga bevosita xavf solishi mumkin bo'lgan 130 ta bino va xonalarning faoliyati vaqtincha to'xtatildi, texnik talablarga javob bermaydigan 448 ta agregatdan foydalanishga chek qo'yildi.

Zero, qurilish maydonidagi kichik bir e'tiborsizlik ulkan fojiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, 5 360 nafardan ziyod gaz va elektr payvandchilar hamda ishchilar ishtirokida 294 marotaba uchrashuvlar o'tkazilib, ularga yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar tushuntirildi, joylarda 43 ta ogohlantiruvchi banner va pannolar o'rnatildi. Bu kabi targ'ibot ishlari jadallik bilan davom ettirilmoqda.

**Sirojiddin BURXONOV,**

Andijon viloyati FVB katta inspektori, katta leytenant

Nurobod tumanida favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan tegishli tashkilot va xizmatlar bilan hamkorlikda "Kuydirgi kasalligi tarqalishining oldini olish" mavzusida ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar tashkil etildi.



## KASALLIK O'CHOG'I TAHLIL QILINDI

Seminarining asosiy maqsadi — kuydirgi kasalligining oldini olish, kasallik o'chog'i aniqlangan taqdirda tegishli xizmatlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, vaziyatni tezkor baholash hamda aholi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashdan iborat bo'ldi.

Tadbirning nazariy qismida mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga hududdagi epidemiologik va epizootologik vaziyat, kuydirgi kasalligining kelib chiqish sabablari, tarqalish yo'llari, kasallikning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Shuningdek, kasallik aniqlangan yoki unga gumon qilingan holatlarda fuqarolar, tibbiyot xodimlari hamda mas'ul xizmatlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Seminar davomida ishtirokchilar tomonidan mavzuga oid savollar berilib, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar muhokama qilindi. Ayniqsa, kasallikning oldini olish, ehtimoliy o'choqlarni

o'z vaqtida aniqlash, tegishli hududni belgilash va zarur xizmatlarni tezkor jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbirning amaliy qismi tumanning "Sharq yulduzi" MFY hududida tashkil etildi. Unda shartli ravishda kuydirgi kasalligi o'chog'i yuzaga kelgan vaziyat modellashtirilib, ushbu hududni belgilash, xavfli zonani aniqlash va tegishli xizmatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish jarayonlari amaliy tarzda namoyish etildi.

Shuningdek, shartli ravishda kuydirgi kasalligiga gumon qilingan fuqarolarga tezkor tibbiy yordam ko'rsatish, ularni xavfsiz tarzda tibbiy muassasaga yetkazish hamda vaziyat bo'yicha mas'ul xizmatlarni xabardor qilish tartiblari ko'rsatib berildi. Amaliy mashg'ulotlar davomida FVB, tibbiyot, veterinariya va boshqa tegishli xizmatlarning o'zaro hamkorligi, vazifalarni aniq va tezkor bajarishi alohida namoyish etildi.

**Bahriddin MUSURMONQULOV,**

Nurobod tumani FVB boshlig'i, podpolkovnik



## PAXTA QABUL QILISH PUNKTIDA O'QUV MASHQI O'TKAZILDI

**Baliqchi tumanidagi Bo'ston paxta qabul qilish punktida "Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari va FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.**

O'quv mashqidan ko'zlangan asosiy maqsad obyektga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek, obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari va favqulodda vaziyatlarning davlat tizimi xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirishdan iborat bo'ldi.

Mashg'ulot davomida shartli ravishda yuzaga kelgan favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha amaliy harakatlar bajarildi. O'quv mashqiga Favqulodda vaziyatlar boshqarmasidan 20 nafar shaxsiy tarkib va 4 ta texnika, tuman tibbiy yordam xizmatidan 6 nafar xodim va 2 ta texnika, tuman IIBdan 2 nafar xodim va 1 ta texnika, tuman Qo'riqlash bo'limidan 3 nafar xodim va 1 ta texnika, "Chinobod" elektr tarmoqlaridan 4 nafar xodim va 1 ta texnika, tuman Gaz ta'minoti bo'limidan 3 nafar xodim va 1 ta texnika, shuningdek, obyektning rahbar-xodimlari hamda ishchi-xizmatchilaridan 38 nafar kishi va 2 ta texnika jalb etildi. Umumiy hisobda mashqda 76 nafar ishtirokchi va 12 ta

maxsus texnika qatnashdi.

Mashq jarayonida favqulodda vaziyat yuzaga kelganda tezkor xabar berish, kuch va vositalarni safarbar etish, hududni o'rab olish, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda xavfli omillarni bartaraf etish bo'yicha xizmat va tuzilmalarning hamkorlikdagi harakatlari amaliy sinovdan o'tkazildi.

O'quv mashg'uloti yakunlariga ko'ra, obyekt tuzilmalari shaxsiy tarkibi hamda FVDT xizmatlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarligi "Cheklangan, tayyor" deb baholandi.

Bunday maxsus-taktik o'quv mashqlari obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash, rahbar va mas'ul xodimlarning favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakat qilish ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, tegishli xizmat va tuzilmalarning o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Azizbek YARKULOV,**

Andijon tumani FVB boshlig'i o'rinbosari

**"Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJ obyektlarida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.**

## XIZMATLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIK



Tadbir davomida tasdiqlangan reja-jadval asosida shartli ravishda yuzaga kelgan favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Unda zavodning fuqaro muhofazasi tuzilmalari, yong'in-qutqaruv qismi, tibbiyot-sanitariya qismi, harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi, sanitariya drujinasi, Qorovulbozor tumanida joylashgan harbiy qism tezkor guruhi hamda Favqulodda vaziyatlar quyi tizimlari xodimlari ishtirok etdi.

Mashg'ulotning asosiy yo'nalishi zaharli gaz sizib chiqishi oqibatlarini tezkor bartaraf etishdan iborat bo'ldi. Shartli ravishda zaharli gazning atrof-muhitga tarqalishi holatida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimi kuch va vositalari, shuningdek, obyektning texnik xodimlari tomonidan belgilangan vazifalar bajarildi.

O'quv mashqi davomida avariya oqibatlarini bartaraf etish, hududdagi xavfli omillarni cheklash, jarohatlangan xodimga shifokorgacha bo'lgan birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va uni tibbiyot-sanitariya qismiga yetkazish bo'yicha amaliy harakatlar bajarildi.

Shuningdek, harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi, sanitariya drujinasi va yong'in-qutqaruv qismi xodimlarining hamkorlikdagi harakatlari sinovdan o'tkazildi. Ishtirokchilar favqulodda vaziyatlarda tezkor va muvofiqlashtirilgan harakat qilish bo'yicha o'zlarining amaliy ko'nikmalarini namoyish etdilar.

Ta'kidlash joiz, bunday amaliy mashg'ulotlar favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tezkor bartaraf etish hamda obyektning fuqaro muhofazasi tuzilmalari va tegishli xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

**J. ABDUALIMOV,**

"Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJ O'ta muhim, toifalangan va alohida obyektlarda favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i, podpolkovnik

**Yoz mavsumida yong'inlarning oldini olish, aholi va hududlarni yong'in xavfidan muhofaza qilishga qaratilgan "Dolzarb 60 kun" profilaktik tadbirlari doirasida Samarqand viloyatining Jomboy tumanida joylashgan "Zarafshon" milliy tabiat bog'ida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.**



O'quv mashg'ulotidan ko'zlangan asosiy maqsad issiq va quruq ob-havo sharoitida o'rmon va tabiiy hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish, yong'in-qutqaruv bo'linmalarining tezkor harakat qilish hamda yong'inni bartaraf etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Shuningdek, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda hamkor xizmatlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mashg'ulot senariysiga ko'ra, bog' hududidagi quruq o't-o'lanlar va daraxtzor maydonda shartli yong'in sodir bo'ldi. Kuchli shamol ta'sirida yong'inning keng hududga tarqalishining oldini olish hamda uni qisqa vaqt ichida bartaraf etish bo'yicha yong'in-qutqaruv bo'linmalari tomo-

## "ZARAFSHON" MILLIY tabiat bog'idagi mashg'ulot

nidan amaliy harakatlar bajarildi.

Mashq davomida maxsus texnikalarni voqea joyiga tezkor yetkazish, yong'in o'chirish vositalaridan samarali foydalanish, suv manbalaridan uzluksiz suv ta'minotini yo'lga qo'yish, yong'in o'chog'ini qurshab olish va uning boshqa hududlarga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amaliy ko'nikmalar sinovdan o'tkazildi.

Shuningdek, o'rmon va tabiiy hududlarning o'ziga xos sharoitlarida harakatlanish, yong'in yo'nalishini aniqlash, xavfli hududlardan fuqarolarni xavfsiz joyga olib chiqish hamda mavjud kuch va vositalarni to'g'ri taqsimlash masalalariga ham e'tibor qaratildi.

O'quv mashg'ulotida Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining yong'in-qutqaruv bo'linmalari, Zarafshon milliy tabiat bog'i xodimlari va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Mashg'ulot davomida xizmatlarning vazifalari amaliy tarzda bajarilib, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda o'zaro axborot almashish va hamkorlik qilish mexanizmlari sinovdan o'tkazildi.

Shu bilan birga, bog' hududidagi yong'in xavfsizligi holati o'rganilib, mavjud maxsus tex-

nika, suv ta'minoti vositalari, yong'in o'chirish jihozlari va boshqa zarur vositalarning shayligi ko'zdan kechirildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga tegishli tavsiyalar berildi.

Bog' hududida dam olayotgan fuqarolar o'rtasida ham profilaktik-tushuntirish ishlari olib borildi. Ularga tabiat qo'ynida ehtiyotsizlik bilan gulxan yoqmaslik, yonuvchan material va chiqindilarni tashlab ketmaslik, to'liq o'chirilmagan tamaki qoldiqlarini qoldirmaslik hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish zarurligi tushuntirildi.

O'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashg'uloti yong'in-qutqaruv bo'linmalarining shayligini yanada oshirish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish, tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda o'rmon va tabiiy hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish bo'yicha amaliy tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

**Ilhom BOQIYEV,**

Samarqand viloyati FVB Axborot xizmati boshlig'i, kapitan

# KORRUPSIYA – JAMIYATDAGI IJTIMOIY ILLAT



Butun dunyoda asosan korrupsiyaning tabiati va mohiyati salbiy ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Korrupsiya – bu shaxsning mansab vakolatidan har qanday ko'rinishda qonunga hilof ravishda foydalanishidir. Korrupsiyaga oid huquqiy ong aholining huquqiy savodxonlik va turmush darajasining pastligi natijasida shakllanadi. Bundan tashqari, jamiyati-mizdagi mavjud poraxo'rlik davlat tashkilotlarining zaifligini anglatadi.

Jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda jamoatchilik nazoratini to'liq amalga oshirish davlatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy siyosatlaridan biridir.

Korrupsiya – universal hodisa bo'lib, huquqiy jamiyat qurish, investisiyalarni jalb qilish va aholining, ayniqsa, uning kambag'al qatlamlarining farovonligini oshirish borasidagi barcha harakatlarni yo'qqa chiqaradi.

Bu illat jamiyatdagi oddiy hodisa

emas, u butun jahon hamjamiyatiga, xususan, bizning mamlakatimizga haqiqiy tahdiddir. Hozirgi kunda bu illat har qanday jamiyatning asosiy sotsiologik muammolaridan biri hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bunday zararli hodisa barcha davlatlarda uchraydi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Korrupsiya aynan ijtimoiy muhoj oilalarga nomutanosib darajada katta zarar yetkazib, ularda davlat hokimiyatiga nisbatan ishonch-

sizlik paydo qiladi. Bu o'z navbatida, ijtimoiy adolatsizlikni shakllantiradi hamda xorijiy investisiyalar oqimlarining kirib kelishiga su'niy to'sqinlik qiladi.

Darhaqiqat, agar korrupsiya sof iqtisodiy hodisa bo'lganida edi, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bu illatdan butkul holi bo'lardi. Vaholanki, jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari hamda Jahon banki ma'lumotlariga qaraganda, korrupsiya darajasi eng rivojlangan mamlakatlarda ham yuqori bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov – bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat beradi. Jahon iqtisodiyoti aynan korrupsiya tufayli shuncha mablag' yo'qotayotgani, jamiyat taraqqiyo-tining eng xavfli kushandasiga aylangan bu illatga qarshi faqat birgalikda kurash olib borishgina kutilgan samara beradi.

Bugungi kunda korrupsiyaning quyidagi sabablarini uchratishimiz mumkin, xususan:

- iqtisodiy munosabatlarning rivojlani-shini sekinlashtiradigan byurokratik to'siq-larning mavjudligi;
- davlat idoralarida shaffoflikning to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;
- kadrlar siyosatining zaifligi;
- takrorlanadigan lavozimlarning mav-

judligi;

- davlat idoralaridagi nepotizmning rivojlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6098-son Farmoniga asosan mamlakati-mizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasay-tirish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish normalari tatbiq etilishi hamda yashirin iqtisodiyot-ni qisqartirish bo'yicha maxsus komissiya tuzilishi, unga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi belgilandi.

Prezidentimizning "Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Kons-titutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi", degan ibo-ralaridan kelib chiqib ish ko'rish muhimdir. Ya'ni korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun korrupsiyani qo'llab-quvvatlovchi ayrim davlat organlarini qisqartirish yoki hususiy sektorga o'tkazish, davlat xizmatla-rini ko'rsatish tizimini yanada takomillashti-rish, barcha davlat organlarida jamoatchilik nazoratini o'rnatish, davlat tashkilotlarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorli-gini kuchaytirish zarur.

**Bahodir ALIYEV,**

Sirdaryo viloyati FVB SHXB  
bo'lim boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining "NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Favqulodda vaziyatlar markazi apparati, markazning "Janubiy" kon boshqarmasi hamda Navoiy sanoat maydoni obyektlarida favqulodda vaziyatlar bo'limi harbiy xizmatchilari ishtirokida navbatdagi tezkor yig'ilish o'tkazildi.



## “HALOLLIK VAKSINASI” QANDAY SHAKLLANTIRILADI?

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyati, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, xizmat intizomini mustahkamlash, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish hamda turli salbiy holatlarning barvaqt profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlar atroflicha muhokama qilindi.

Tadbirni Favqulodda vaziyatlar markazi boshlig'i, polkovnik I. Sharipov ochib, 2026-yilning o'tgan davri davomida harbiy xizmatchilar o'rtasida xizmat intizomiga rioya etish holati, aniqlangan kamchiliklar hamda ularning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan omillarga alohida to'xtaldi. Shuningdek, shaxsiy tarkib o'rtasida qonunbuzilishlarning oldini olish, har bir xodimning xizmat vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi va qonun talablariga so'zsiz rioya etishi muhim ekani ta'kidlandi.

Mutaxassislar tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda sohaga oid qonunosti hujjatlarining asosiy talablari tushuntirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida Milliy ma'ruza"sida ilgari surilgan ustuvor vazifalar yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir davomida korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'luvchi, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi salbiy illat ekani alohida qayd etildi. Uning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolmasdan,

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, xizmat faoliyatida halollik va shaffoflik tamoyillariga qat'iy amal qilish zarurligi ta'kidlandi.

Shu o'rinda Prezidentimizning korrupsiyaga qarshi kurashishda jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etish va aholida "halollik vaksinasi"ni shakllantirish borasidagi fikrlari ham eslatib o'tildi. Korrupsiyaning barvaqt oldini olishda har bir rahbar va xodimning shaxsiy mas'uliyati muhim ekani hayotiy misollar asosida tushuntirildi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar tomonidan yo'l-transport hodisalarining sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy saqlash hamda tarqatish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Harbiy xizmatchilar o'rtasida qonuniylik, xizmat intizomi, halollik va mas'uliyat muhitini yanada mustahkamlash, korrupsiyaviy va boshqa turdagi huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda profilaktik tadbirlarni muntazam davom ettirish bo'yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

**Behzod G'AFUROV,**

"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK Favqulodda vaziyatlar markazi targ'ibot va tashviqot guruhi boshlig'i, mayor

**Qayum HASANOV,**

JKB va NSM OFVB inspektori, leytenant

## YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI – BARCHAMIZNING MAS'ULIYATIMIZ

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida yo'l-transport hodisalarining oldini olish, harbiy xizmatchilar va xizmatchilar o'rtasida yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini yuksaltirish hamda xizmat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan profilaktik tadbir o'tkazildi.



Tadbir Andijon viloyati FVB Andijon harbiy prokuraturasi hamda viloyat Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari hamkorligida tashkil etildi.

Yig'ilish davomida yo'l-transport hodisalarining oldini olish, transport vositalaridan foydalanishda belgilangan xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish, yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mutaxassislar tomonidan haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga amal qilishi, transport vositasini belgilangan tezlikda boshqarishi, texnik soz holatda saqlashi, shuningdek, xizmat transportidan foydalanishda mas'uliyat va intizomni ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbir doirasida harbiy xizmatchilar va xizmatchilarga tegishli xizmat hamda shaxsiy transport vositalarining texnik holati va zarur hujjatlari viloyat Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari ishtirokida ko'zdan kechirildi. Tekshiruv jarayonida transport vositalarining yo'l harakati xavfsizligi talablariga muvofiqligi, texnik sozligi va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilayotganligi o'rganildi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faqatgina nazorat organlarining emas, balki har bir haydovchi va yo'l harakati ishtirokchisining bevosita mas'uliyati ekani qayd etildi.

Zero, yo'l harakati qoidalariga amal qilish – avvalo, inson hayoti va salomatligini asrash, oilalar osoyishtaligini ta'minlash hamda yo'l-transport hodisalarining oldini olishning eng muhim omillaridan biridir.

Hamkorlikdagi bunday profilaktik tadbirlar kelgusida ham davom ettirilib, xodimlar o'rtasida huquqiy madaniyat va yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mas'uliyatni yanada oshirishga qaratiladi.

**Abdujabbor MO'MINOV,**

Andijon viloyati FVB ShXB boshlig'i

# TOG' BAG'RIDAGI SINOV

## 2-qism



«(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

...Texnika ichidagi haydovchilar mustahkam kabina sabab hayotda qolishdi. Ammo ochiq maydonda turgan inson uchun bunday imkoniyat bo'lmas edi. Shunga qaramay, hech kimning ruhiyati sinmadi. Hech kim "ortga qaytaylik" demadi. Aksincha, har bir inson yana bir qadam oldinga tashladi.

Qurilish korxonasining yuklagichi yordamida qor ostida qolgan texnika va haydovchilarni qutqarish ishlari boshlandi. Kurak, tros va texnika bir maqsad yo'lida ishlardi. Har bir daqiqa umid bilan kurash edi. Har bir belkurak qor emas, go'yo vaqt bilan olishayotgandek tuyulardi. Ikki soatdan ortiq davom etgan mashaqqatli mehnatdan keyingina qor bag'rida qolgan texnika ham, haydovchilar ham omon-eson chiqarildi.

Bu kichik g'alaba edi. Ammo oldinda hali undan-da og'ir sinovlar kutayotgan edi. Bu orada vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolgan ekanmiz. Tog'lar ortiga quyosh yashirindi. Atrofni yana zulmat va ayoz egalladi. Shamolning uvillashi yanada kuchaydi. Kimdir avtomobil salonida isinardi. Kimdir navbatdagi vazifani muhokama qilardi. Men esa eski harbiy vagonda tunaydiganlar safida edim. Vagon yillar davomida qarovsiz qolgan ekan.

Eshiklari zanglab, derazalari qotib ketgan, ichkarisi esa sovuq va nam edi. Uni ochishning o'zi bir soatdan ortiq vaqt oldi. Eshikni zo'rg'a ochdik. Ichkarini qor va chiqindilardan tozaladik.

Derazalarga faner qoqdik. Shamol kiradigan har bir tirqishni latta, faner va qo'limizga ilingan narsalar bilan berkitdik.

O'sha paytda biz eski bir vagonni emas, qor va sovuq bilan olishayotgan insonlarning vaqtinchalik boshpanasini barpo etayotgan edik. Chunki oldimizda yana uzun, sovuq va bedor tun kutib turardi...

Sinovning eng og'ir kechasi. Quyosh tog'lar ortiga yashiringach, oppoq qor bilan qoplangan vodiylarni zulmat o'z bag'riga ola boshladi. Kun bo'yi tabiat bilan olishgan tanalar holdan toygan, sovuq esa tobora kuchayib borardi. Biz qurilish obyektidagi vaqtinchalik yotoqxona tomon yo'l oldik. Ana shu tun safarimizning eng og'ir, eng unutilmas kechasiga aylandi.

Hayot erkak kishini turli yo'sinda sinaydi. Ba'zida kuchingni emas, irodangni, sabringni va ruhingni sinaydi.

O'sha kecha aynan shunday sinov bilan yuzma-yuz keldik. Bizdan biroz oldinroq yotoqxona tomon yo'l olgan guruh a'zolaridan biri qor ustiga cho'kkalab o'tirganicha ko'z yoshlarini tiyolmay qolganini ko'rdim. Uning lablari sovuqdan titrar, ko'zlarida esa charchoq, umidsizlik va holdan toyganlik qorishib ketgandi.

– Men ertaga qaytaman... Chidolmayman... Menga bunaqa ish kerak emas... – derdi u titroq ovozda. Bu so'zlarni eshitish oson emasdi. Axir u ham erkak kishi. U ham biz kabi o'z xizmat burchini sharaf deb biladigan, ko'p sinovlarni boshidan o'tkazgan davlat idorasi xodimi edi. Ammo ba'zan tabiat insonning tanasini shunchalik holdan toydiradiki, ruhiyating ham bir lahzaga taslim bo'lishni istab qolar-kan. Atrofidagi hamkasblari uni yolg'iz qoldirishmadi. Kimdir yelkasiga qo'l qo'ydi. Kimdir "O'zingni qo'lga ol. Ozgina sabr qil. Hammasi yaxshi bo'ladi. Biz birgamiz" deya dalda berardi.

O'sha manzara qalbimga chuqur muhrlanib qoldi. Men o'sha kuni yana bir haqiqatni angladim. Insonning haqiqiy kuchi mushaklarida emas, taslim bo'lmas irodasidadir. Yotoqxona yetib kelganimizda Qamashi tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi inspektori, katta leytenant Ziyodulla Eshtemirov biz uchun issiq ovqat tayyorlab qo'ygan ekan. Issiq ovqatning hidi butun xonani tutgan bo'lsa-da, rostini aytsam, o'sha paytda hech birimiz ochlikni his qilmayotgandik. Biz uchun eng katta ne'mat ovqat emas edi. Eng katta orzu — shalabbo bo'lib ketgan kiyimlarimiz ertalabgacha qurib ulgurishi edi. Chunki nam kiyim bilan yana tog' sari yo'l olishning o'zi hayot uchun xavf tug'dirardi.

Yotoqxona juda tor edi. To'rt kishi zo'rg'a sig'adigan xona qisqa fursatda nam kiyimlar bilan to'lib ketdi. Kurtkalar, shimlar, etiklar, qo'lqoplar... Hamma narsa qurishi uchun osib chiqildi. Hatto kiyimlar podpolkovnik Mirzohid Ostonsov yotadigan joyning tepasigacha ilib qo'yilgandi. Shunda u atrofga kulimsirab qarab:

– Meni rahbar deb ham hisoblamaysizlarmi? – dedi.

Xonani kulgu tutdi. Bir lahzaga bo'lsa-da, sovuqni ham, charchoqni ham unuttik.

Hazil ortidan esa u har doimgidek jiddiy ohangda hammamizga yuzlandi.

– Mayli, ukalar... Bu ham xizmatning bir sinovi. Bugun ko'rsatgan meh-

natingiz uchun barchangizga rahmat. Bo'shashmaymiz. Nasib qilsa ertaga, albatta, qishloqqacha yetib boramiz. Odamlar bizdan umid kutayпти.

Bu oddiy gaplar emas edi.

Bu so'zlar muzlagan tanamizni emas, holdan toygan ruhimizni isitdi.

O'sha kecha hech kim bu so'zlarni qarsak bilan kutib olmadi.

Ammo har birimiz ularni yuragimizga joyladik.

Chunki ba'zan insonni oldinga boshlab boradigan narsa issiq kiyim yoki qulay sharoit emas.

Ba'zan uni faqat bir og'iz samimiy dalda, yonidagi safdoshining ishonchi va oldidagi burch hissi tik oyoqda ushlab turadi.

Ana shu tun biz nafaqat tabiat bilan, balki o'zimiz bilan ham kurashayotgan edik.

Bu sinovlar orasida o'zim ham ancha qiynalayotgandim. Tomog'im qattiq shishib, yiringlab ketgan, har yutganimda og'riq jonimni ezardi. Orada isitmam ko'tarilib, badanimni titroq bosardi. Shunday bo'lsa-da, buni bahona qilishni istamadim. Chunki yonimdagi har bir safdoshim ham o'z sinovi bilan kurashayotgan, bizni esa oldinda hali bajarilishi kerak bo'lgan muhim vazifalar kutayotgan edi.

Holatimni sezgan podpolkovnik Mirzohid Ostonsov yonimga kelib, samimiy ohangda:

– Yaxshimisiz? Holatingiz unchalik yaxshi ko'rinmayapti, – deb hol-ahvol so'radi.

So'ng cho'ntagidan bir nechta dori tabletkasini chiqarib:

– Shuni iching, o'zingizni ehtiyot qiling. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz ko'p, – dedi.

Balki o'sha tabletkadan ham ko'ra, uning e'tibori va g'amxo'rliги menga ko'proq kuch bergandir. Chunki eng og'ir sinovlarda insonni faqat dori emas, yonidagi safdoshining mehr-e'tibori va daldasi ham oyoqda ushlab turadi.

**Umid qayta uyg'ongan kun**

Tongning ilk nurlari qor bilan qoplangan tog'lar uzra yoyilishi bilan yana ish qizib ketdi. Tabiat bizni bir kecha davomida yana bir bor sinovdan o'tkazgandi. Kecha mashaqqat bilan ochilgan yo'lni tun bo'yi yog'gan qor yana butunlay berkitib ulgurgan edi.

Qurilish tashkilotining qudratli yuklagichi yana oldinga chiqdi. Temir tishlar oppoq qorni yorib, shtab tomon

yo'l ochardi. Biz esa uning ortidan, go'yo tabiat bilan navbatdagi jangga kirayotgan askarlardek ilgarilardik. Tushga yaqin shtabga yetib bordik. Ko'rgan manzaramizni so'z bilan ifodalash qiyin edi. Yo'lning ikki chetiga surilgan qor devorlari uch qavatli bino balandligicha ko'tarilib turardi. Uzoqdan qaraganda ular oppoq tog' yoki muzlikni eslatardi. Ammo biz yaxshi bilardik. Bu oppoq devorlar go'zallik emas, yashirin xavf edi. Har qanday silkinish, shamol yoki yangi ko'chki bir necha soniya ichida kunlab qilgan mehnatimizni yo'qqa chiqarishi mumkin edi. Shunday bo'lsa-da, hech kim ortga qaramadi.

Nihoyat, bir sutkadan ortiq vaqt jarlik bag'rida qolgan ikki buldozer ham mashaqqatli mehnatdan so'ng chiqarib olindi. Ularning dvigatellari yana ovoz bergan lahzada barchamizning yuzimizda tabassum paydo bo'ldi. Bu oddiy texnikaning ishga tushishi emas edi. Bu umidning yana qayta uyg'onishi edi. Shundan so'ng Qiziltom qishlog'i tomon yo'l ochish ishlari yana davom ettirildi.

Polkovnik Farhod Mirzayev, Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov va boshqa mas'ullar texnikalar bilan qorni yorib yo'l ochish ishlari boshqarayotgan bir paytda, men va serjant Sanjar Ahmedov boshqa, ammo kam bo'lmagan muhim vazifani bajarayotgan edik.

Chunki sovuq va ochlik bilan kurashayotgan odamga eng avvalo, issiqlik kerak edi.

Biz vaqtinchalik boshpana bo'ladigan vagonga jon bag'ishlash va safdoshlarimiz uchun issiq ovqat tayyorlashga kirishdik.

Vagon tayyor bo'lgach, uning yonida polkovnik Farhod Mirzayev, podpolkovnik Mirzohid Ostonsov va boshqa hamkasblar bilan tushlik tayyorlashni boshladik.

Imkoniyat esa juda cheklangan edi.

Bor-yo'g'i uch kilogrammcha go'sht, bitta qozon va oddiy o'choq...

Hatto bir chimdim tuz ham yo'q edi.

Qorni eritib qozonga suv soldik. Shu payt...

(Davomi kelgusi sonlarda...)

**Sohibjon VAYITOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
Axborot xizmati rahbari



## XAZON YOQMANG!

 **YONG'IN XAVFI**  
 **ZAHARLI TUTUN NAFAS YO'LLARIGA ZARAR**  
 **TUPROQ UNUMDORLIGI KAMAYADI**  
 **QONUNGA KO'RA TAQIQLANADI, JARIMA SOLINADI**



101

**YONG'IN YUZ BERSA, ZUDLIK BILAN "101" RAQAMIGA QO'NG'IROQ QILING!**

# KUZGI TOZALOVNING ZAHARLI ASORATLARI VA YONG'IN XAVFI

Kuz – tabiatning eng go'zal fasllaridan biri. Daraxt barglari sarg'ayib, oltin va qizg'ish ranglarga bo'yalib, hovli-joylarimizni, ko'cha-yu xiyobonlarimizni bezaydi. Ularni tozalash, yo'llar, xiyobonlardan olish kerak bo'ladi. Shu jarayonda, ayniqsa, kuz oylarida ko'plab fuqarolarimiz orasida bir noto'g'ri odat kuzatiladi – to'kilgan xazonlarni, quruq o'tlarni va bog'-rog'lardan yig'ilgan chiqindilarni osongina yoqib yuborish. Bu odat bir qarashda zararsizdek tuyilsa-da, aslida, jiddiy yong'in xavfini, katta ekologik zarar va hatto inson hayotiga tahdidni keltirib chiqaradi.

Har yili kuz faslida xazon va quruq o'tlarni yoqish natijasida yuzlab yong'in hodisalarning qayd etiladi. Bu hodisalar ko'pchiligi oldini olish mumkin bo'lgan holatlar sanalib, faqat aholining ehtiyotsizligi va bexabarligi tufayli sodir bo'ladi.

Ko'pchilik xazonni yoqishni oddiy, hatto foydali ish deb hisoblaydi, go'yo-ki, bu bog'ni tozalashning eng tez yo'li. Ammo bu noto'g'ri tasavvur bir qancha jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Kuz oylarida shamol tez-tez yo'nalishini o'zgartirib turadi. Yoqilgan xazon uyumidan chiqqan uchqun bir zumda qo'shni hovlilarga, quruq o'tlarga, yog'och binolarga, hatto elektr tarmoqlariga sakrab o'tishi mumkin. Natijada kichik bir gulxan butun bir mahallani qamrab oluvchi yirik yong'inga aylanishi ehtimoldan xoli emas.

Xazon tarkibida esa faqat quruq barglar emas, balki turli plastik qoldiqlar, sintetik moddalar va boshqa chiqindilar ham bo'lishi mumkin. Bunday aralashma yonganda havoga zaharli tutun, is gazi va boshqa zararli moddalar chiqadi. Xazon

tutuni tarkibida is gazi hamda inson organizmida saraton kasalliklarini keltirib chiqaruvchi moddalar mavjud. Ayniqsa, bolalar, keksa yoshdagi odamlar va nafas yo'llari kasalliklariga chalingan insonlar uchun juda xavfli. Tutun bilan zaharlanish, nafas olish qiyinlashuvi, ko'z va tomoq shilliq pardasining shikastlanishi kabi holatlar tez-tez uchraydi.

Ko'pchilik: "xazon yonib, kul tuproqqa foyda beradi", deb o'ylaydi. Aslida esa baland haroratda yonish jarayonida tuproqning yuza qatlamidagi foydali mikroorganizmlar, chuvalchanglar va boshqa organizmlar nobud bo'ladi. Bu esa tuproqning tabiiy unumdorligini pasaytiradi, aksincha, chirigan xazon tuproq uchun tabiiy o'g'it vazifasini bajaradi.

Nazoratsiz qoldirilgan olov ko'plab hollarda yog'och omborxonalar, garajlar, uy-joylar, elektr ustunlari va gaz quvurlariga yetib borib, jiddiy moddiy zarar yetkazadi. Bunday yong'inlarni o'chirish uchun qutqaruvchilarning ko'p vaqti va resurslari sarflanadi, ba'zan esa insonlar uy-joysiz qolib, katta miqdordagi mablag' talab etiladigan tiklash ishlariga zaruriyat tug'iladi. Eng achinarlisi shundaki, har yili xazon yoqish paytida yonib ketish, kuyish va hatto o'lim hodisalari ham qayd etiladi. Ayniqsa, bolalar mustaqil ravishda xazon yoqishga urinib, o'zlariga jiddiy shikast yetkazadigan holatlar uchraydi.

Xazon va quruq o'tlarni xavfsiz va foydali tarzda yo'q qilishning bir qancha muqobil usullari mavjud. Xazon ajoyib tabiiy o'g'it xom ashyosi. Uni maxsus kompost chuqurchasiga yoki qopga yig'ib, bir necha oy davomida chirishga qoldirsangiz, bog'-dala uchun sifatli

organik o'g'itga aylanadi. Bu usul ham ekologik jihatdan foydali, ham iqtisodiy jihatdan tejamli. Shuningdek, maydalangan xazonni daraxt va gullar tagiga to'shab qo'yish mumkin, bu tuproqning namligini saqlab qoladi, begona o'tlarning o'sishini kamaytiradi va qish sovug'idan himoya qiladi.

Ko'pgina shaharlarda mahalliy hokimiyat yoki kommunal xizmat korxonalari bog' chiqindilarini yig'ib olish xizmatini yo'lga qo'ygan. Xazonni maxsus qoplariga solib, belgilangan joylarga qo'yish orqali uni xavfsiz utilitatsiya qilish mumkin. Qishloq joylarda esa xazonni chorva mollari uchun issiq to'shama sifatida ishlatish mumkin. Shuningdek, ko'plab mahallalarda kuzgi tozalash tadbirlari tashkil etiladi, bunda yig'ilgan xazon markazlashtirilgan tarzda va xavfsiz sharoitda yo'q qilinadi.

Huquqiy jihatdan qaraganda ham, xazon yoqish shunchaki maishiy xatolik emas, balki qonun buzilishidir. Shuni ham eslatib o'tamiz: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik kodeksiga muvofiq, aholi punktlari hududida, yashil zonlarda hamda o'rmon fondi yerlarida ochiq olovdan foydalanish, jumladan, xazon va quruq o'simliklarni yoqish qat'iy taqiqlanadi. Bunday qoidabuzarlik ma'muriy javobgarlikka, agar u jiddiy oqibatlariga olib kelsa – jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Ehtiyot choralariga qaramay, ba'zan kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda har bir fuqaro quyidagi harakatlar tartibini bilishi zarur. Darhol Favqulodda vaziyatlar xizmatiga xabar bering. "101" raqami orqali qo'ng'iroq qiling. Qo'ng'iroq paytida aniq manzilni, yong'inning taxminiy ko'lamini

va atrofda odamlar bor-yo'qligini bildiring. Vaqtni behuda sarflamang – kichik gulxan bir necha daqiqada katta yong'in-ga aylanishi mumkin.

O'zingiz va yaqinlaringizni xavfsiz joyga olib chiqing. Tutundan zaharlanmaslik uchun burun va og'izni nam mato bilan yoping, imkon qadar yerga yaqinroq pastda harakatlaning, chunki toza havo pastda ko'proq bo'ladi. Agar olov hali kichik bo'lsa va sizga xavf tug'dirmasa, uni qum, tuproq yoki suv bilan o'chirishga harakat qiling. Biroq alanga katta bo'lsa yoki shamol kuchli bo'lsa, hech qachon uni yolg'iz o'chirishga urinmang – bu juda xavfli.

Yong'in elektr liniyalari va gaz quvurlari yaqinida bo'lsa, ehtiyot bo'ling, chunki bu qo'shimcha xavf – yong'in yoki portlash xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Qutqaruvchilar kelguncha vaziyatni kuzatib turing, imkon bo'lsa qo'shni va oila a'zolarini xabardor qiling, ular ham xavfsiz masofaga chekinsin. Bolalar va keksalarni birinchi navbatda xavfsiz joyga olib chiqing.

Kuzning go'zalligidan bahramand bo'lishga haqlimiz, ammo bu go'zallikni saqlash va o'zimiz hamda atrofimizdakilarning xavfsizligini ta'minlash ham har birimizning burchimizdir. Xazonni yoqish o'rniga uni kompost sifatida ishlatish yoki kommunal xizmatlarga topshirish orqali biz ham tabiatga katta foyda keltiramiz, shu bilan birga o'zimizni va yaqinlarimizni xavfdan asraymiz.

Har bir kichik ehtiyotsizlik katta fojiga aylanishi mumkinligini unutmaylik. Yong'in, bu nafaqat moddiy zarar, balki ba'zan qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlar manbai hamdir.

**Gulnora SHERMATOVA,**  
jurnalist

### XAVFSIZ VA FOYDALI ALTERNATIVALAR:



KOMPOST QILING



MULCH (YER USTIGA TO'SHAB ISHLATING)



MAXSUS QOPGA SOLIB, BELGILANGAN JOYGA TOPSHIRING



KOMMUNAL XIZMAT YORDAMIDAN FOYDALANING



ISSIQ TO'SHAMA SIFATIDA FOYDALANING

**ESDA TUTING!**

Har bir kichik ehtiyotsizlik katta fojiga sabab bo'lishi mumkin. O'zingizni, yaqinlaringizni va atrof-muhitni asrang!

# YOZDA HAM “SOVUQ URISHI” MUMKIN. QANDAY?

**Yuz falaji – yuzning qiyshayib qolishi, asosan jazirama yozning kasalligidir, desak ishonmasligingiz mumkin. Ammo bu haqiqat. Shifokorlar ta'kidlashicha, issiqdan saqlanishda tanadagi boshqa holatlarni hisobga olmaslik ana shunday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Eng yomoni: aksariyat bemorlarda yuz joyiga qaytmaydi.**

Insonning yuzi uning nafaqat tashqi qiyofasi, balki sog'lig'i, kayfiyati va ichki dunyosini aks ettiruvchi jonli ko'zgudir. Yuzdagi tabassum insonni yanada chiroyli ko'rsatsa, sog'lom va tetik chehra unga alohida nur bag'ishlaydi. Bizdagi ko'p munosabatlar yuzda ifodalanadi. Insonning qiyofasi asosan yuz bilan xarakterlanadi. Shu bois yuz salomatligini asrash, uning tabiiy nuri-ni saqlash har bir insonning o'ziga bog'liq.

Ammo masalaga tibbiy nuqtayi nazardan qaraganda, yuzning bir tomonida to'satdan qiyshayish paydo bo'lishini shunchaki “sovuq urdi” deb baholash to'g'ri emas. Yuzning bir tomonidagi mushaklarning kuchsizlanishi yoki falajlanishi ko'pincha yuz nervi faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. “Bell falaji” deb ataladigan holatda yuzning bir tomoni osilib qolishi, og'iz burchagining pastga tortilishi, ko'zni to'liq yuma olmaslik, yoki yumilganicha qolib ketib ocha olmaslik, ta'm bilishning o'zgarishi kabi belgilar kuzatilishi mumkin. Uning aniq sababi har doim ham ma'lum emas; virusli infeksiyalar va nervdagi yallig'lanish jarayonlari ehtimoliy omillar qatorida ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, haroratning keskin o'zgarishi va sovuq havo oqimiga duch kelish yuz nervi falaji bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan tadqiqotlar ham bor. Biroq ilmiy ma'lumotlar bir xil emas: ayrim tadqiqotlarda sovuq yoki ob-havo omillari bilan bog'liqlik topilgan bo'lsa, boshqalarida bunday aloqa aniq tasdiqlanmagan. Shuning uchun “konditsioner tagida yotsangiz, albatta yuzingiz qiyshayadi” degan qat'iy xulosadan qochish kerak.

## Konditsionerning o'zi aybdormi?

Konditsioner ishlayotgan xonada bo'lishning o'zi yuz falajiga sabab bo'ladi, deyish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Muammo, avvalo, organizmning keskin harorat almashinishiga duch kelishida bo'lishi mumkin.

Masalan, odam jazirama ko'chadan kirib, badanini sovutishga ulgurmasdan konditsionerning juda sovuq havosiga ro'para bo'ladi. Yoki terlab turgan paytda sovuq havo oqimi bevosita yuz, bo'yin va quloq atrofiga uriladi. Kechasi esa konditsioner yoki ventilyatorning havo oqimi bir nuqtaga, ayniqsa yuzga uzluksiz yo'nalib tursa, bu yaxshi natija bermaydi.

Shuning uchun konditsioner shamolini bevosita yuzga qaratmaslik, xona haroratini haddan tashqari pasaytirmaslik va issiqdan kirgach, tanaga asta-sekin xona haroratiga moslashish imkonini berish ma'qul.

Bundan tashqari, ventilyator ham yozning eng oddiy va qulay salqinlatish vositalaridan biri. Ammo uni yuzga to'g'ridan-to'g'ri qaratib, tun bo'yi ishlatib qo'yish

yaxshi odat emas.

Ayniqsa odam terlab yotgan bo'lsa, sovuqroq havo oqimi terning bug'lanishini tezlashtiradi va tana yuzasida keskin sovish hissini paydo qiladi.

Ventilyatorni xonadagi havoni aylantiradigan qilib joylashtirish xavfsizroq. Bunda uning yo'nalishi odam tanasiga to'g'rilanib qolmasligi kerak.

Yelvizak nafaqat, yuz asab tolalari, tananing barcha a'zolari, xususan, buyraklar, nafas organlari, bo'g'imlar uchun ham xatarli. Ayniqsa bo'yin, quloq va yuzga bir tomondan uzluksiz shamol urib turishi yuzning qiyshayib qolishiga olib kelishi mumkin. Yelvizak hamisha yuzni “falaj qilib qo'yadi”, deyish to'g'ri bo'lmaydi. Undan o'z o'rnida foydalanish kerak. Ammo haroratning keskin o'zgarishi va sovuq havo ta'siri endigina co'milgan, terlab turgan odamda yuz nervi bilan bog'liq muammolar uchun ehtimoliy omil bo'lishi mumkin.

Issiqda cho'milish odamni tetiklashtiradi. Ammo soch va bosh terisi ho'l holatda uzoq vaqt yurish, ayniqsa kuchli shamol yoki konditsioner qarshisida qolish yaxshi emas. Cho'milgandan keyin boshni quritib, keyin salqin xonaga kirish yoki ko'chaga chiqish organizmning keskin sovishining oldini olishga yordam beradi.

Ayniqsa quloq, bo'yin va yuz atrofini ho'l qoldirmaslik foydali.

## Nimalar xavfni oshirishi mumkin?

Yuzning qiyshayib qolishiga faqat tashqi havo ta'siri sabab bo'lmaydi. Yuz nervi falaji turli sabablar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Virusli infeksiyalar, ayrim quloq kasalliklari, bosh va yuz sohasidagi jarohatlar, nevrologik holatlar, metabolik kasalliklar, jumladan qandli diabet bilan bog'liq yuz nervi zararlanishlari shular jumlasidandir.

Shuning uchun quyidagi holatlarga ham jiddiy qarash kerak:

1. Kuchli shamollash yoki virusli infeksiyadan keyin.

Ayrim viruslar yuz nervi falaji bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shamollashdan keyin yuzning bir tomonida g'alati uvi-shish, og'iz burchagining osilishi yoki ko'zni yumish qiyinlashsa, shifokorga murojaat qilish kerak.

2. Quloq atrofidagi og'riq va kasalliklarda.

Yuz nervi quloq sohasi orqali o'tadi. Shu sababli quloqdagi ayrim yallig'lanish va infeksiyalar yuz nerviga ta'sir qilishi mumkin.

3. Bosh yoki yuz jarohatlaridan keyin.

Yiqilish, zarba yoki boshqa jarohatdan keyin yuzning bir tomoni harakatsizlanishi



oddiy “shamollash” deb qabul qilinmasligi kerak.

4. Qandli diabetda.

Qand almashinuvidagi buzilishlar nervlar faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli diabeti bor insonlar yuzda to'satdan paydo bo'lgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmasligi kerak. Ayrim tadqiqotlarda haroratning keskin o'zgarishi bilan yuz falaji o'rtasidagi bog'liqlik diabeti bor odamlarda kuchliroq kuzatilgani qayd etilgan.

5. Kuchli charchoq va organizmning zaiflashishi.

Bular har doim ham yuz falajini keltirib chiqarmaydi. Ammo umumiy sog'liq holatini e'tiborsiz qoldirish, uyqusizlik va infeksiyalarni vaqtida davolamaslik organizmning himoya imkoniyatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Eng muhim maslahat: yuz qiyshayishi-ni kutib o'tirmang.

Yuzning bir tomoni to'satdan qiyshayib qolsa, “kecha konditsioner tagida uxlagandim”, “sochim ho'l edi”, “yelvizakda o'tirgandim” deb o'zingizga tashxis qo'ymang. Chunki yuzdagi falajlikning eng xavfli sabablaridan biri insult bo'lishi mumkin. “Bell falaji” bilan insultning ayrim belgilarini oddiy odam ajratishi qiyin. Shu bois yuzning bir tomoni osilib qolishi yoki qo'l-oyoqdagi kuchsizlik, nutqning buzilishi, muvozanatning yo'qolishi kabi belgilar bir vaqtda paydo bo'lsa, zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish kerak.

Bell falaji aniqlangan taqdirda ham davolanishni cho'zmaslik muhim. Klinik tavsiyalarda katta yoshdagi bemorlarda shifokor nazorati ostida kortikosteroidlarni simptomlar boshlanganidan keyingi dastlabki 72 soat ichida boshlash tavsiya etiladi. Ko'zni to'liq yuma olmaydigan bemorlarda esa ko'zni himoya qilish alohida ahamiyatga ega.

Yuz qiyshaygan zahoti yuzni qattiq uqalash, issiq narsani bosish, terini kuydirish, o'zboshimchalik bilan dori ichish yoki “shamollab qolibdi, o'tib ketadi, ko'pchilik tuzalgan” deb bir necha kun kutish noto'g'ri.

Ayniqsa ko'z yumilmay qolsa, uni

ochiq qoldirib yurish xavfli: ko'z yuzasi qurib, shikastlanishi mumkin. Bunday vaziyatda shifokor tavsiyasi bilan ko'zni himoyalash zarur.

## Yozgi profilaktikaning 10 oddiy qoidasi

1. Konditsioner havosini yuz va bo'yin-ga bevosita yo'naltirmang. Ventilyatorni yuzga qaratib tun bo'yi uxlamang.

2. Issiq havoda o'ta sovuq suvni yana haddan ziyod ko'p ichmang.

3. Jaziramada yurgandan keyin juda sovuq xonaga birdan kirmang.

4. Konditsioner haroratini haddan tashqari pasaytirib, shunday havoda uxlab qolmang.

5. Terlab turgan paytda kuchli yelvizakda uzoq o'tirmang.

6. Cho'milgach, bosh va sochlarni quritib oling.

7. Ho'l bosh bilan kuchli shamol yoki konditsioner qarshisida qolmang.

8. Quloq, yuz yoki bosh sohasidagi og'riq va infeksiyalarni e'tiborsiz qoldirmang.

9. Yuzning bir tomonida to'satdan kuchsizlik sezilsa, o'zboshimchalik bilan davolanishni boshlamang.

10. Yuz qiyshayishi bilan birga qo'l-oyoq kuchsizligi yoki nutq buzilishi kuzatilsa, buni insult ehtimoli sifatida baholab, darhol shoshilinch yordam chaqiring.

Yozning issig'idan qo'rqib, konditsioner va ventilyatordan butunlay voz kechish shart emas. Faqat me'yorni bilish, oltin o'rtalikni tanlash kerak. Muhimi – keskin harorat almashinuvidan saqlanish, sovuq havo oqimini to'g'ridan-to'g'ri yuzga qaratmaslik va organizmning holatini hisobga olish.

Eng asosiysini esa yana bir bor ta'kidlaymiz: yuzning to'satdan qiyshayishi oddiy “shamollash” deb qaraladigan belgi emas. Uning ortida yuz nervi falaji ham, boshqa jiddiy nevrologik muammolar ham turishi mumkin. Vaqtida shifokorga murojaat qilish esa eng to'g'ri va eng muhim choradir.

**Gulnora SHERMATOVA,**  
jurnalist

|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|-----------------------------|---------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------------|---------------------------------------|--------------------------------|----------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------|
|                             | O'tmishni o'rga-<br>nuvchi fan        |                                      |                                     |                                        |                                        | Ruslar-<br>ning to'rtbur-<br>chak noni                                              |                                | Tibbiyot<br>tili             |                                     | Gollivud<br>mahsuloti                   |                                       | Moyana,<br>oylik               |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Yurak<br>urishi<br>tasviri            |                                      | Halqum,<br>bo'yin                   | Kinore-<br>jissyor<br>...<br>Ergashyev |                                        | Mehnat-<br>sevar<br>hasharot                                                        |                                |                              |                                     |                                         |                                       | Novcha,<br>darozi              |                                        | Mulla-<br>do'stning<br>yori (b/f)         |                                   | Katta<br>yoshdagi<br>ayolga<br>murojaat |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        | Ot<br>go'shtili<br>xamir<br>taom                                                    |                                | Aktyor<br>...<br>Rahmatov    |                                     | Tashqi<br>ko'rinish,<br>...-<br>shamoil |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Buxoro<br>viloyati<br>tumani          |                                      | Shogird<br>murab-<br>biysi          | Somali<br>poytaxti<br>(Afrika)         |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       | Pichan<br>uyumi                |                                        | Amerika<br>tuyaqushi                      |                                   | So'zla-<br>shuv<br>mada-<br>niyati      |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        | Igna<br>(sinonim)                                                                   |                                |                              |                                     |                                         | Dushman,<br>yog'iy                    |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Iskab-<br>topar,<br>iskovich          | Ruxsat<br>so'rash,<br>izn            |                                     | Mador,<br>quvvat                       |                                        |                                                                                     |                                |                              | Komik<br>aktrisa<br>...<br>Jalilova |                                         |                                       |                                |                                        |                                           | Toshkent<br>shahridagi<br>tuman   |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     | Xonanda<br>...<br>Farmonov             |                                        | Shifo-<br>baxsh<br>shirinlik                                                        |                                |                              |                                     |                                         | Chavandoz<br>dala<br>hovlisi          |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Kubaga<br>qo'shni<br>oromgoh<br>orol  |                                      |                                     |                                        |                                        |  |                                |                              |                                     |                                         | Novokain<br>idishi                    |                                | Bo'g'iq,<br>issiq<br>havo              |                                           |                                   |                                         |
|                             | Mehmon<br>kutuvchi                    |                                      | Kuchli<br>yomg'ir                   |                                        | "...<br>va<br>chumoli"<br>(masal)      |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       | Qog'oz<br>xalta                |                                        | "Ma,<br>ushla!"                           |                                   |                                         |
|                             | Sekin,<br>shoshil-<br>masdan          |                                      | Uchinchi<br>nota                    |                                        |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        | "Kavkaz<br>...si"<br>(k/kome-<br>diya) |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       | O'ymakor<br>usta<br>asbobi     |                                        | Dzyudo-<br>chilar<br>"ringi"              |                                   | Suv<br>yirtqichi                        |
| Quvonch,<br>xursand-<br>lik |                                       | Binoni<br>evakuat-<br>siya<br>rejasi |                                     | Ballon<br>puflagich                    |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       | Chiroyli<br>yozadi             | Asal...,<br>qovog'...                  |                                           |                                   |                                         |
| Tartib<br>raqami            |                                       | Sud<br>rahbari                       |                                     |                                        |                                        | Shimoliy<br>Amerika<br>hindu-<br>lari                                               | Olmos<br>og'irligi<br>o'lchovi | Ulfat,<br>...-<br>og'ayni    |                                     |                                         |                                       |                                | Ong,<br>idrok                          |                                           | "Kichkin-<br>toy va<br>..." (m/f) |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     | Gazetaga<br>yozilish                   |                                        | Geo-<br>metrik<br>figura                                                            |                                |                              |                                     | E'tibor<br>qozonish                     | Barmoq-<br>dagi<br>taqinchoq          |                                | Tog'lar-<br>dan<br>qaytgan<br>...-sado |                                           |                                   |                                         |
|                             | O'pkaga<br>havo<br>tortish            |                                      | Fizika,<br>biologiya                |                                        |                                        |                                                                                     |                                | Futbolchi<br>...<br>Gonsales |                                     |                                         |                                       |                                | Xitoy<br>arbobi<br>...<br>Szedun       |                                           |                                   |                                         |
|                             |                                       |                                      |                                     |                                        |                                        | Poytaxti<br>Manama<br>(Osiyo)                                                       | Bank<br>qarzi                  | "O'yinchi"<br>qush           |                                     | Amitabx<br>...<br>("Bog'-<br>bon")      |                                       | Tank<br>qoplamasi              |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Qo'shiqchi<br>...<br>Rizayeva         | Zukkolar<br>o'yini<br>(TV)           |                                     | Hisobga<br>olish                       |                                        | Qahramon<br>Shiroq<br>xalqi                                                         |                                |                              | AQShlik<br>siyosatchi<br>Jorj ...   |                                         |                                       |                                | To'rt-<br>burchak<br>muhr              | Yaponcha<br>guldasta<br>tuzish<br>san'ati |                                   | Avtoning<br>dori<br>qutisi              |
|                             |                                       |                                      |                                     | Savdo<br>qatori                        |                                        |                                                                                     |                                |                              | Saida<br>Rametova<br>kasbi          |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
| "Sukut<br>alomati-<br>..."  | Mashhur<br>shved<br>estrada<br>guruhi |                                      |                                     |                                        |                                        | Tuzga<br>qo'shi-<br>ladigan<br>modda                                                | Ichi<br>po'k<br>yong'oq        |                              |                                     |                                         | Qozog'is-<br>tondagi<br>shahar        |                                | "Robo..."<br>(fantas-<br>tik b/f)      |                                           |                                   |                                         |
| To'ng'ich<br>o'g'il         |                                       |                                      |                                     | Xushbo'y,<br>muattar<br>hid            |                                        |                                                                                     | So'roq<br>so'z                 |                              | DAEWOO<br>mashina-<br>chasi         |                                         |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | Charos,<br>obaki,<br>husayni          |                                      |                                     |                                        |                                        | Eron<br>konfet-<br>lari                                                             |                                |                              |                                     |                                         | Dunyo-<br>dagi eng<br>katta<br>vulqon |                                | Sport<br>sholchasi                     |                                           |                                   | Rubob<br>simi                           |
|                             | G'alaba<br>hayqi-<br>rig'i            |                                      | Jahon<br>...<br>Uvaysiy<br>(shoira) |                                        | "Va'daga<br>vafo-<br>mardning<br>..."  |                                                                                     | Safari,<br>shikor              |                              |                                     |                                         |                                       | Xokkey<br>uchra-<br>shuvi      |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             |                                       |                                      | G'ira-<br>shira<br>payt             |                                        |                                        |                                                                                     |                                | Rus<br>ayollari<br>ismi      |                                     | Sexdagi<br>dastgoh                      |                                       |                                |                                        |                                           |                                   |                                         |
|                             | O'q otish<br>mashq-<br>xonasi         |                                      |                                     |                                        | Kelinlar<br>shahri                     |                                                                                     |                                |                              |                                     |                                         |                                       | Yashik,<br>butilka<br>(umumiy) |                                        |                                           |                                   |                                         |

# VATANGA MUHABBAT MADANIYATLI INSONNING BIRINCHI FAZILATIDIR

Men maosh taklif qilmayman, mukofot ham, tansiq taomlar ham. Men faqat ochlik, tashnalik, so'nggi nafasgacha kurash va jang taklif qilaman. Vatanni lablari bilan emas, yuragi bilan sevganlar menga ergashsin.



**Jozef GARIBALDI,**  
XIX asrda yashab o'tgan  
italyan xalq generali

Vatanga muhabbat madaniyatli insonning birinchi fazilatidir.

**Napoleon BONAPART II,**  
Fransuz imperatori

General bo'lish oddiy askarlikdan boshlanadi.

**Boguslav VOYNAR,**  
Polshalik satirik

Hamisha sen buyruq beradigan odamlarning senga aytarlarini ham eshita bil.

**Jorj PETTON,**  
Qo'shma Shtatlar  
generali. XIX asr

Ba'zan oddiy askarlar ularga berilgan topshiriqdan ko'ra aqlliyoq qarorlar qila oladi.

**Orson Skott KARD,**  
Amerikalik taniqli yozuvchi

Agar sizning harakatlar-  
ringiz boshqalarni ko'proq  
orzu qilishga, ko'proq o'r-  
ganishga, ko'proq harakat  
qilishga va ko'proq intilish-  
ga unday olsa, demak siz  
lidersiz.



**Jon Kvinsi ADAMS,**  
Amerikalik davlat arbobi,  
diplomat

Dushmanlar qarshisida turishda qancha katta jasorat kerak bo'lsa, do'stlarimiz oldida turish ham shunchani talab etadi.

**Joanna ROULING,**  
yozuvchi

Jasorat barcha fazilatlardan eng muhimi, chunki jasoratsiz boshqa hech bir fazilatni namoyon qilolmaysiz.

**Mayya ANGELOU,**  
yozuvchi

Qahramonlik har doim ham ulkan ish bo'lavermaydi. Ba'zan kichik g'alabalar va katta yuraklar ham tarixni o'zgartira oladi.



**Meri ROUCH,**  
yozuvchi

Mardlar o'lsa motam tutish kerak emas. Aksincha, shunday odamlar yashab o'tganiga tasanno aytish kerak.

**Jorj PATTON,**  
taniqli harbiy arbob

Hech narsa uchun turib bera olmaydigan odam hamma narsa uchun yiqila oladi.

**Aleksandr HEMILTON,**  
taniqli harbiy arbob

Rejasiz jang boshlash dushmanga ilk yengilishdir

**Helmut fon MOLTKE,**  
taniqli harbiy arbob

Men o'rgangan eng muhim narsa shundaki, askarlar o'z rahbarlarining nima qilayotganini kuzatishadi. Siz ularga saboq berishingiz, o'rgatishingiz va abadiy ma'ruza qilishingiz mumkin, ammo ular uchun siz namuna bo'lib qolaverasiz.



Qo'l ostingizdagilar sizga o'z muammolarini aytishdan to'xtagan kun siz ularga rahbar bo'lishdan to'xtagan kundir. Bunday holda ular sizni yordam bera olishingizga ishonchlarini yo'qotgan yoki ahamiyat bermaydi degan ikkilamchi xulosaga kelgan bo'ladilar. Ikkala holat ham liderlikning muvaffaqiyatsizligidir.

Tug'ma liderlik bo'lmaydi, u shakllanadi. Liderlar uni hayot sinovlaridan, xatolardan, tajribadan o'rganadi va o'zlashtiradi.

**Kolin Luter POVEL,**  
Amerikalik harbiy-siyosiy arbob

Jasorat oyoqda turib, gapirishga undaydigan kuch, shu bilan birga, o'tirib tinglashni o'rgatadigan kuch ham.



**Uinston CHERCHILL,**  
Ikkinchi jahon urushi  
davrida Angliya bosh vaziri,  
Britaniya armiyasining  
sobiq qo'mondoni

Muammolar aqlli insonlarni chora ko'rishga, nodonlarni esa tushkunlikka tushishga undaydi.

**Yuliy SEZAR,**

Xizmat va do'stlik bir-biri bilan keshishmaydigan parallel yo'llardir. Kesishdimi, albatta, bittasi barbod bo'ladi.

**Aleksandr SUVOROV,**  
taniqli harbiy arbob

Bir mix bir taqani, bir taqa bir otni, bir ot bir insonni, bir inson butun bir o'lkani qutqarishi mumkin.

*Turk xalq maqoli*

**Yulduz O'RMONOVA**  
tarjimasi

## “Vatan yagonadir, Yagonadir xalq”

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida nafaqat o'zi, balki farzandlari ham iqtidorli bo'lgan, turli hunar va qiziqishlarga ega harbiy xizmatchilar bisyor. Qutqaruvchilik kasbida namunali xizmat qilib kelayotgan ana shunday harbiy xizmatchilardan biri katta yo'riqchi-qutqaruvchi Behzod Egamnazarovning ijodkor qizi qalamiga mansub she'rlardan e'tiboringizga havola qilamiz.

Yorqin kelajakka  
Kamarbastamiz.  
Bu osmon bittadir.  
Quyosh – bitta:  
Balq!  
Yuragim, sen tanho  
Hayrat bilan qalq.  
Dunyoda ellar ko'p,  
Elatlar bisyor,  
Vatan yagonadir,  
Yagonadir xalq!

Serildiz daraxt ham  
Sershox, serbutoq,  
Tanasi bittadir,  
Garchi seryaproq.  
Shamolda silkingan  
Har mato tug'mas,  
Unutma, tug'imiz yakto –  
shu bayroq.

Bolajon bu elga  
O'g'ilmiz, qizimiz,  
Munosib vorismiz  
Iziga izmiz.  
Dunyoni to'g'arak,  
Yaqqalam qilgan,  
Yodda tut: Navoiy  
Avlodi bizmiz.

Bellar bukchayganda  
Ta'zim, qulluqdan  
Istiqlol erk berdi  
Asriy qullikdan.  
Nega men kuylamay,  
So'zlamay nega,  
Baxtim butlab bergan –  
Mustaqillikdan!

Bir elmiz: keksa-yosh,  
Balki, rastamiz,  
Kimdan baland, kim-la  
bitta safdamiz.  
Mushtarak maqsadli,  
Yangi bir hayot –  
Yorqin kelajakka  
Kamarbastamiz.

**Nilufar BEHZOD qizi,**  
Abdulla Oripov nomidagi ijod  
maktabi o'quvchisi

## Vaziyat

gazetasi



MUASSIS:  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FAVQULODDA VAZIYATLAR  
VAZIRLIGI**

Bosh muharrir:  
podpolkovnik  
**Rustam ALIMOV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o'rinbosari:  
Dilmurod DO'ST

Navbatchi muharrir:  
Y.O'rmonova  
Musahhih:  
B. Yunusova  
Sahifalovchilar:  
M. Hamroyev  
B. Salohiddinov

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh. Rashidov ko'chasi, 17-uy.

@vaziyat\_muhofaza

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro'yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.  
**Bosmaxona manzili:**  
Toshkent shahri, Mirobod tumani,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.  
Buyurtma № G-949.  
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.  
Adadi – 20084 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko'rinishda o'qishingiz mumkin:



**Indeks:**  
yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun – 382